



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Asadova Nodiraning

*“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun*

*“”To be to ”va ”to have to” oborotining lingvistik
tahlili”*

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : o'qitTo'raeva G..

“Himoyaga tavsiya etildi”

Xorijiy tillar fakulteti

dekani _____ p.f.n. D. Jo'rayev

“ _____ ” _____ 2011 yil

Qarshi shahri, 2011 yil

MUNDARIJA.

KIRISH.....	2-16
I BOB. Soʻz turkumlari haqida	17
1.1. Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot.....	17-21
1.2. Feʼl soʻz turkumi haqida.....	22-34
1.3. Modal feʼl haqida umumiy maʼlumot.....	35-41
1.4. “Must” modal feʼli haqida maʼlumot.....	42-47
XULOSA.....	48-49
II BOB. “To be to” va “To have to” oborotlarining lingvistik tahlili.....	50
2.1. Hozirgi zamon ingliz tilida “To have to” ning gapdagi maʼnolari.....	50-56
2.2. Hozirgi zamon ingliz tilida “To be to” ning gapda maʼnolari.....	57-59
2.3. Hozirgi zamon ingliz tilida “To have to” ning sintaktik-semantik tahlili.....	60-63
2.4. Hozirgi zamon ingliz tilida “To be to” oborotining sintaktik-semantik tahlili.....	64
XULOSA.....	65-66
UMUMIY XULOSA.....	67-70
Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar.....	71
Foydalanilgan badiiy adabiyotlar va lugʻatlar.....	72
Ilova.....	72

KIRISH.

O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi hukumatining umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari, halq ta'limi Vazirligining buyruqlari, Prezident I. A. Karimovning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'n to'qqiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi PQ – 1358- son Qarori hamda mamlakatimizda istiqloq yillarida ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, ma'naviy – ma'rifiy va iqtisodiy sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, ularning ko'lami, mazmun – mohiyati, istiqboli to'g'risida fikr yuritiladi. Unda bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ularning pirovard natijalari inson, uning qadr- qimmatini, azizligi bilan belgilanishi va shu munosabat bilan mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, ularning xususiyatlariga, ya'niqsa, globallashtirish jarayonlarida barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratilgan.¹

Ma'lumki, har bir xalq erkin, farovon yashash xuquqiga ega va buni aziz deb biladi. Jumladan, har bir inson ham bunday huquqqa ega. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida inson va Fuqarolar huquqlari, erkinlik va burchlari kafolatlari belgilanib berilgan.

Hozirgi paytda inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi mazkur meyor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, ular bo'yicha majburiyatlarni bajarishning mexanizmi yaratildi.

Umuman olganda, islohotlar markazida insonning oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarni mazmun - mohiyati ham inson va uning qadr- qimmatini ko'tarish bilan bog'liq.

Vatan va inson manfaati - oliy maqsad. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Bugun biz tarixiy davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch

¹ I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008 y.

osoyishta xayot kechirayotgan, avvalambor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”, - degan edi. Avvalo, tarixan qisqa bu davr, bir o‘spirin yoshiga teng vaqt davomida davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo‘lganligi bugan hech kimga sir emas.

O‘zbekistonning mustaqilligi oson va o‘z - o‘zidan qo‘lga kiritilmadi, balki Yurtboshimiz rahnamoligidagi halqimizning sobitqadam va sermashaqqat faoliyatining natijasi bo‘ldi. Shu ma’noda istiqlol kimningdir in’omi emas, balki ko‘plab kurashlar, muntazam hamda samarali faoliyat asosida qo‘dga kiritilgan qonuniy natija, xalqimizning ulkan yutug‘idir.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga ko‘ra, Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan jamiyat hayotini tubdan isloh qilish, jahonda moliyaviy – iqtisodiy inqiroz bo‘lib turganiga qaramay, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va bosqichma - bosqich modernizatsiyalash modeli amalda o‘zini to‘la oqlamoqda.

Mustaqillik – xalqimizning ulkan yutug‘idir. Zero, mamlakatimizda millatlararo va dinlararo ziddiyatlarni oldini olish, ichki va tashqi buzg‘unchi kuchlarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan keskin choralar va ularning ahamiyati vaqi o‘tibgina yanada qadrlil bo‘lmoqda.

Mustaqillik – demokratik islohotlar kafolati. Prezident Islom Karimov asoslab berganidek, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash tadrijiylik va izchillikka erishish kafolat bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Taraqqiyotning o‘zbek modeli rivojlanish tamoyillarini to‘g‘ri tanlab olishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Demokratik davlat qurish tamoyillari, ya’ni iqtisodning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchilik faoliyati, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy himoyani amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga evolyusion yo‘l bilan bosqichma - bosqich o‘tish O‘zbekistonning strategik rivojlanish uchun asos bo‘ldi.

Mamlakatimizda milliy davlatchilikni barpo etilishi ham puxta reja asosida bordir. 1992 yilda Asosiy qonunimiz – O‘zbekiston Respub- likasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipining eng muhim tamoyil sifatida belgilanishi – bularning barchasi davlat qurilishining yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratish maqsadida tub ma’muriy islohotlar amalga oshirilishi bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik instituti joriy etildi. Mahalliy o‘zini - o‘zi boshqarish organi tizimi, mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlash jarayonlari bosqichma- bosqich olib borildi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlarda ayrim mamlakatlardagidek shoshma - shosharlikka yo'l qo'yilmadi. "Demokratiya oroli " bo'lishga da'vo ham qilinmadi, chetdan tayyor demokratiya modelini ham kiritishga yo'l qo'yilmadi.

Mamlakatimiz xalqaro hamjamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal etish ishiga qo'shgan salmoqli hissasi, tashabbuslari evaziga, xalqaro tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatidagi samarali ishtiroki orqali o'ziga obro' orttirmoqda.

O'zbekiston – yuksak ma'naviyatni qadrlaydigan yurt. Mustaqillik yillarida aholi ong va tafakkurini o'zgartirishning zarurligini hisobga olish doimo ustuvor bo'lib keldi. Yurtboshimizning: "Ong va tafakkur o'zgarmasa, hayot o'zgarmaydi", - degan g'oyasi amalda o'z isbotini topmoqda. Yangicha hayotni eskicha ong va tafakkur. Qarashlar bilan qurib bo'lmasligini anglab yetish odamlar dunyoqarashining o'zgarishiga olib keladi.

Bu yil barchamiz ona yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri – Vatanimizning mustaqilligining 20 yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz – dedi Mamlakatimiz Prezidenti. Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq- ravshan belgilab olishni talab etadi.

Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylagan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotiimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Dunyodagi taraqqiy topgan 20 ta davlat ishtirokida tashkil etilgan, "Katta yigirmalik" deb nom olgan guruh doirasida qabul qilinayotgan barcha chora - tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atla- riga erishish yo'lida hozircha biron- bir jiddiy siljish ko'zga tashlanayotgani yo'q.

Biz bugun 2010 yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishiz zarur. Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki deb, ta'kidlaydi

Prezidentimiz,² yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekan albatta barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

2010 yilda kasb - hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash, shuningdek, maktablarning moddiy- texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish yakuniga yetkazildi.

Umuman olganda, 2005-2010 yillar davomida 7 ming 800 dan ortiq umumtali muassasasi, qariyb 1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Faqat 2010 yilda maktablar, kasb- hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va multimedia uskunasi o'rnatildi.

Unib - o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlar izil davom ettirildi. Buning natijasida faqat 2010 yilning o'zida 72 sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo'lgan sport inventarlari va uskunalar joylarga yetkazib berildi.

O'tgan yilda farzandlarimizning ijodiy qobiliyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqa va san'at maktablarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan dasturni amalga oshirish boshlandi. Agar 2009 yilda oltita musiqa va san'at maktabi qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, hisobot yilida 46 ta ana shunday maktab foydalanishga topshirildi. Ularning qurilishiga 51 milliard so'mdan ortiq kapital mablag' yo'naltirildi.

Birgina 2010 yilda byudjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.

2011 yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 108,3 foiz, sanoatdagi o'sish – 109,3 foiz, qishloq xo'jaligida – 105,8 foiz hajmida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Inflyatsiya darajasi 7-9 foiz atrofida bo'lishi nazarda tutilmoqda.

² I. A. Karimov. Mamlakatimiz modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimizdir. Xalq so'zi ro'znomasi, 2010 yil 28 yanvar.

O'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Elektron ta'lim" milliy tarmog'ini barpo etishni nihoyasiga yetkazish hamda 2011 yilda mamlakatimizning bara oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb- hunar kollejlarini yagona kompyuter axborot tarmog'iga ulashni ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Mamlakatimizda 2011 yilning Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili, deb e'lon qilinishi barchamizning zimmamizga qanday ulkan mas'uliyat yuklashi, bu borada tayyorlanayotgan umumdavlat Dasturini hayotga tatbiq etish bizdan qancha kuch va mablag'larni safarbar etishni talab qilishi haqida bugun gapirib o'tirishning, o'ylaymanki, zarurati bo'lmasa kerak deb ta'kidladi Prezident Islom Karimov.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora- tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Prezident Islom Karimov Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Samarqand zamini xususida so'z yuritganda, biz uning qadimiyligi, dunyodagi eng ko'hna o'lkalar qatorida turishi, shu bilan birga, go'zal va betakror tabiati, umumbashariy sivilizatsiya rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida, ulug' mutafakkir zotlar, olimu fuzalolar va jasur sarkardalar haqida gapirishimiz odat tusiga kirib qolgan, dedi Yurtboshimiz. Lekin bugun Samarqand vohasining ana shunday buyuk tarixini yana bir marta e'tirof etgan holda, viloyatning yer osti va yer usti boyliklari, uning ulkan salohiyati, bunday noyob imkoniyatlarni ishga solish va ularni el- yurtimiz manfaati yo'lida oqilona ishlatish xususida fikr yuritishimiz ayni muddao bo'ladi. Bunda, avvalambor, bu sohada qilayotgan ishlarimizga tanqidiy ko'z bilan qarash va xolisona baho berish asosiy vazifamiz bo'lishi kerak. O'z faoliyatimizga chuqur va atroflicha baho bermasdan, boy berilgan imkoniyatlarni to'g'ri tahlil qilmasdan va tegishli xulosalarni chiqarmasdan turib, hammamiz yaxshi tushunamizki, boshlagan ishlarimizni davom ettirish, eng muhimi, har qaysimiz o'z joyimizda xalqimizning bizga bildirgan ishonchini oqlashimiz qiyin bo'ladi.

Bu haqda gapirar ekanmiz, bir haqiqatni esimizdan chiqarmasligimiz lozim: Samarqand viloyati, shu yurtda yashayotgan mehnatkash xalq hech qachon oqsoqlar qatorida bo'lmagan, doimo ilg'orlar safidan munosb o'rin egallab kelgan, lo'nda qilib aytganda, hech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydi, dedi Islom Karimov.

Dunyoga mashhur, ko'pchilik bir ko'rishni orzu qiladigan, Samarqand ahlining eng sevimli maskani bo'lmish registon maydoni, Bibixonim, Shohi Zinda, Hazrati Xizr

ziyoratgohlari oxirgi yillarda har tomonlama obod qilinib, butun jahondan keladigan mehmon va sayyohlarning havasini tortmoqda. Imom Buxoriy majmuasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, bunday muqaddas qadamjolarining yanada obod bo‘lib borayotgani ko‘pgina musulmon mamlakatlari davlat arboblari va jamoatchiligi, minglab ziyoratchilarning yuksak e‘tibori va hurmatiga sazovor bo‘lmoqda.

Shu kunlarda 6 milliard 500 million so‘m mablag‘ sarflanib, Siyob dehqon bozorini rekonstruksiya qilish va uning hududini obodonlashtirish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Shular qatorida, salkam 4 milliard so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, Samarqand shahridagi Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi hududida yangi muzey binosi, keng maydon va so‘lim xiyobon barpo etildi, buyuk ,bobomiz muazzam haykali o‘rnatilib, bugungi kunda bu maskan Samarqand tarixining yana bir yorqin ko‘zgusiga aylandi.

Bir so‘z bilan aytganda, Samarqand vohasida keyingi yillarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan qariyb 200 milliard so‘m kapital mablag‘ yo‘naltirildi. Bularning barchasi Samarqand shahri, viloyatdagi tuman va qishloqlarimizning yanada ko‘rkam va obod bo‘lishida, shu yurtida yashayotgan insonlarning ehtiyojini ta‘minlashda salmoqli qadam bo‘lib, ayni vaqtda xorijiy sayyoh va mehmonlarning hayrat va havasini uyg‘otmoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Samarqand viloyatida qishloqlarimizni har tomonlama taraqqiy toptirish maqsadida katta ishlar amalga oshirilayotgani, ayni paytda bu borada yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, mavjud muammolar va ularning yechimi haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi.

Samarqand viloyatida namunaviy loyihalar bo‘yicha zamonaviy uy-joylar barpo etish uchun joriy yilning o‘zida 21 ta qishloq massivida qariyb 44 milliard so‘mlik kapital mablag‘ hisobidan 650 ta uy- joy qurish va ularni shu yilning uchinchi choragida foydalanishga topshirish belgilangan edi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, bunday yangi, odamlarning intilishini tortayotgan, qishloqlarimizni obod qilish, qishloq hayotini shahar darajasiga ko‘tarishda istiqboli katta bo‘lgan muhim masalaga yetarlicha e‘tibor berilmayapti. Buning natijasida ana shu uylarni qurishda sustkashlikka va ularni topshirish muddatlarini asossiz ravishda cho‘zib yuborishga yo‘l qo‘yilmoqda.

Bugungi kunda aqlga sig‘maydigan ba’zi holatlar haqida faqat afsuslanib gapirish, xususan, vodoprovod tarmoqlarining ishdan chiqishi oqibatida odamlarning quduq suvidan foydalanishga majbur bo‘layotganini Bulung‘ur va boshqa tumanlarda kuzatish mumkin.

Tabiiy gaz bilan ta‘minlash haqida gapirganda, bu masalada ham shu kabi noxush misollar kam emasligini aytish lozim. Jumladan, Samarqand, Urgut, Tayloq, Payariq,

Kattaqo'rg'on tumanlarida bu nuqsonlar ko'zga tashlanmoqda. Ayni qish paytida bunday holat odamlarning haqli e'tirozini uyg'otmoqda.

Bu kabi kamchiliklar, ayniqsa, elektr energiyasi ta'minotidagi uzulishlar ayrim qishloq vrachlik punktlarida uchrashini hech chidab bo'lmaydigan hol deb baholash kerak.

Viloyatda zamonaviy bilim va professional malakaga, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini bitirgan sh kadrlarga ishonch bildirish, ularning yo'lini ochib berish o'rniga mas'ul lavozimlarga bugungi kun talablariga javob bermaydigan nomzodlarni tavsiya etishdek nomaqbul tajriba ko'llanib kelgan.

Shu kunlarda barchamiz nihoyasiga yetib borayotgan 2010 yilni yakunlab, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011 yil ostonasida turibmiz deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, "o'zbek modeli" deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tatbiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitusiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani,

odamlarning o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rish 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman.

Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi yo'nalishlarni demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilash zarur, deb o'ylayman.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitusiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitusiyamizning 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Shuningdek, Prezident ma'ruzasida sud – huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish hamda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish masalalari to'lig'incha o'z yechimini topdi.

Shuningdek, Prezident ma'ruzasida sud – huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov

qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish hamda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish masalalari to'lig'incha o'z yechimini topdi.

Mavzuim “to be to” va “to have to” ning lingvistik tahlili.

MAVZUNING DOLZARBLIGI: “To be to” va “to have to” must modal fe'lining ekvivalentlari hisoblanadi. Modal fe'llar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanliklari tufayli ingliz tilidagi fe'l sistemasida alohida guruhni tashkil etadi. Ular mustaqil fe'llar singari ish-harakatni to'g'ridan to'g'ri ifodalamaydi.

Bu fe'llar gapda so'zlovchining voqea-hodisaga nisbatan subyektiv monosabatini ifodalab keladi. O'zbek tilida modal fe'llar mavjud emas. Modallik ma'nosi o'zbek tilida turli morfologik va sintaktik usullar ya'ni ko'makchi fe'llar, modal so'zlar va affikslar yordamida ifodalanadi.

“Must” modal fe'lining ekvivalentlari bo'lgan Mavzuim “to be to” va “to have to” odatda majburiylik va zaruriyatni ifodalaydi.

Lekin ularning ehtimollik, shama qilish, taxmin, “to have to” ning esa so'zlovchining o'zidan kelib chiqadigan va tashqi muhit ta'siri ostida kelib chiqadigan zaruriyat va shu kabi ma'nolari borki, biz uni mazkur bitiruv malakaviy ishida yoritib berishga harakat qildik.

“To be to” va “to have to” ning turli leksik ma'nolarda qo'llanilishini o'rganish va tahlil qilish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligidir.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING maqsadi va vazifalari: Hozirgi zamon ingliz tilidagi “to be to” va “to have to” oborotlarini nazariy va amaliy jihatdan, shuningdek sintaktik-semantik jihatdan har tomonlama o'rganib chiqishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar vazifa qilib belgilandi:

-Hozirgi zamon ingliz tilida “to be to” va “to have to” borasidagi ishlarni ko'rib chiqish va ularga munosabat bildirish;

-Mavjud nuqtai-nazarlarga ijodiy yondoshib, ularning leksik ma'nolarini o'rganish;

-“to be to” va “to have to” larni “must” modal fe'li mustaqil va yordamchi fe'llar bilan qiyoslab o'rganish asosida ularning struktura va semantikasi bo'yicha tavsiyalar berish;

-Gap qurilishida “to be to” va “to have to” larning roli va o’rnini aniqlash;

-Zamonaviy ingliz va Amerkalik yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan misollardan foydalanib “to be to” va “to have to” ning sintaktik va semantic xususiyatlarini atroflicha o’rganib chiqish;

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING ob’yekti: Modal fe’llarning ekvivalentlari o’rtasida alohida o’rin tutadigan “to be to” va “to have to” tadqiqotning ob’yektidir.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING ilmiyligi va amaliy ahamiyati: “To be to” va “to have to” larni leksik-semantik tahlil qilish orqali uning turli leksik ma’nolarini aniqlash va bu oborotlar qatnashgan gaplarni tarjima qilganda ularning o’zbek tilidagi muqobil vqriantlarini topish tadqiqotning ilmiyligidir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy nazariy xulosalari ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo’lib ulardan “to be to” va “to have to” mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashg’ulotlar o’tishda foydalanish mumkin.

I BOB.

1.1. Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot.

Soʻz turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng koʻp munozarali muammolardan biridir.

Soʻz turkumlarini tasnif qilish 3 turdagi prinsipga asoslanadi:

- 1) maʼno, 2) shakl, 3) funksiya³**

1. Maʼno deganda biz maʼlum bir guruhga kiruvchi hamma soʻzlarning umumiy maʼnosini va mohiyatini tushunamiz. Masalan, “ot” soʻz turkumiga toʻxtaladigan boʻlsak, “ot” soʻz turkumining soʻz sifatidagi struktural maʼnosini tashkil etadi. Xuddi shunday feʼl soʻz turkumining soʻz sifatidagi maʼnosi ish-harakatni bildiradi.

2. Soʻz turkumining shakli deganda biror bir soʻz turkumiga kiruvchi soʻzlarning morfologik xarakteristikasi nazarda tutiladi. Shunday qilib “ot” soʻz turkumi son kategoriyasi (birlik, koʻplik) bilan xarakterlansa, feʼl soʻz turkumi zamon, mayl kabi kategoriyalar bilan xarakterlanadi.

Predlog, bogʻlovchi kabi bir qator soʻzlarning shakli oʻzgarmasligi bilan xarakterlanadi.

3. Funksiya deganda biz soʻzning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga boʻlinadi.

1) uning boshqa soʻzlar bilan birikishi:

2) uning gapdagi vazifasi.

Masalan, misol tariqasida feʼl soʻz turkumiga oid soʻzni olib qaraydigan boʻlsak, “feʼl”, “ot” soʻz turkumi bilan birikadi:

“Write letters”, “discuss questions” va shu bilan birga feʼl soʻz turkumi ravish bilan ham birikadi “Write quickly”, “discuss seriously”. Feʼl soʻz turkumining gapdagi sintaktik funksiyasi kesimdir.

Koʻpchilik olimlar soʻz turkumlarini morfologiyaning bir boʻlagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay soʻz turkumlarini sintaksisga bogʻlab oʻrganmaslik xato boʻladi.

Bu muammoga turli olimlar turlicha fikr bildirganlar.

Akademik Shaxmatovning fikricha soʻz turkumlari sintaksisda oʻrganilishi kerak.⁴

Tilshunos olim B. Ilish soʻz turkumlari nazariyasini baʼzi sintaktik jihatlarini ham oʻz ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi.

³ B. Ilish “The structure of modern English” Leningrad 1971, 27 bet.

⁴ A. A. Shaxmatov “Синтаксис русского языка” 1941.

Tilshunos olim E. M. Gordon soʻz turkumlariga qoʻyidagicha toʻxtalib oʻtadi.⁵

“Har bir tildagi mavjud soʻzlar maʼlum soʻz turkumlariga mansub boʻlib, har bir soʻz turkumi oʻz xususiyatlariga ega⁶.

Soʻz turkumlari bir-biridan maʼnosi, formasi va gapdagi funksiyasiga koʻra farq qiladi.

Har bir soʻz turkumining oʻz leksik maʼnosi bor. Masalan, feʼl soʻz turkumi ish-harakatni ifodalasa, ot soʻz turkumi obʼekt va narsalarning nomini anglatadi, sifat soʻz turkumi esa predmetning belgisini bildiradi”.

Baʼzi soʻz turkumlari turli Grammatik kategoriyalarga ega. Masalan feʼl soʻz turkumi mayl kategoriyasi, zamon, nisbat, shaxs-son kabi kategoriyalarga ega boʻlsa, ot soʻz turkumi son va kelishik kategoriyalariga, sifat soʻz turkumi esa darajalarga ega.

Qolgan soʻz turkumlari faqat bitta formaga ega. Bunday soʻz turkumlariga predlog, bogʻlovchi, yuklama kabi soʻz turkumlari kiradi. Soʻz turkumlari bir-biridan oʻz sintaktik funksiyalariga koʻra ham farq qiladi. Feʼl soʻz turkumi gapda kesim funksiyasida kelsa, ot odatda ega yoki toʻldiruvchi, sifat aniqlovchi yoki predikativ boʻlib kelsa, ravsh hol funksiyasida keladi”.

Kaushanskaya⁷ ham soʻz turkumlarini mustaqil va yordamchi soʻz turkumlariga boʻladi. Mustaqil soʻz turkumlari gapda ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi yoki hol kabi maʼlum bir sintaktik funktsiyani bajaradi.

Mustaqil soʻz turkumlariga;

1) ot

2) sifat

3) olmosh

4) son

5) feʼl

6) ravsh

7) holat kategoriyasi soʻzlari

8) modal soʻzlar

9) undalma

Yordamchi soʻz turkumlarini Kaushanskaya struktural soʻz turkumlari deb qaraydi.

Struktural soʻz turkumlari gapda soʻzlarni bogʻlaydi.

⁵ B. Ilish “The structure of modern English” Leningrad 1971.

⁶ E. M. Gordon, I. P. Krylova “A grammar of Present-Day English” M 1974.

⁷ В. Л. Каушанская «Грамматика английского языка»

Ular gapda mustaqil funksiyani bajarmaydi. Struktural so'z turkumlariga **Kaushanskaya** qo'yidagilarni kiritadi:

- 1) *predlog*
- 2) *bog'lovchi*
- 3) *yuklama*
- 4) *artikl*

Tilshunos olimlar K. N. Kachalova, E. E. Izrailevichlar⁸ so'zlarni qo'yidagi belgilariga ko'ra so'z turkumlariga ajratishadi.

1. *Ma'nosiga ko'ra*
2. *Gapdagi vazifasiga ko'ra*
3. *So'z yasash formasiga ko'ra*
4. *So'z o'zgarish formasiga ko'ra (Grammatik qo'shimchalar bilan).*

Ingliz tilida so'z yasash formasi va so'z o'zgarishi bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratishda unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

Kachalova so'z turkumlarini qo'yidagilarga bo'ladi:

- 1) *ot*
- 2) *sifat*
- 3) *son*
- 4) *olmosh*
- 5) *fe'l*
- 6) *ravish*
- 7) *predlog*
- 8) *bog'lovchi*
- 9) *undalma*

Kachalova ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishni, ular gapda predmetni, belgini, ish-harakatni va gapda ma'lum bir sintaktik funksiyani bajarganligi uchun mustaqil so'z turkumlariga ajratadi. Predlog, bog'lovchi va artiklni yordamchi so'z turkumiga ajratadi.

Undalmani Kachalova mustaqil so'z turkumiga ham, yordamchi so'z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi.

Bundan tashqari Gordon⁹ so'zlarni 3 asosiy guruhga bo'ladi: mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar va mustaqil elementlar.

⁸ К. Н. Качалова, Е. Е. Израилевич «Практическая грамматика английского языка» Москва 1996.

⁹ Е. М. Гордон, И. П. Крылова "A grammar of Present-Day English" Moscow 1974 p5.

Mustaqil so'zlarning aniq leksik ma'nosi bor bo'lib, ular gapda mustaqil funksiyalarni bajaradilar. Demak, ular gapda gapning bosh bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Mustaqil so'zlarga fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar kiradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi so'zlar gapda biror bir sintaktik funksiyani bajarmaydi.

Leksik, ular gapda so'zning ma'nosini aniqlaydi. Masalan, "the", "a" artikllarni olib qaraydigan bo'lsak;

A tree (daraxt noma'lum-the tree-daraxt ma'lum)

Ingliz tilida artikl, yuklama, predlog va bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kiradi.

Mustaqil elementlar turli ma'nolari bilan xarakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi.

Masalan, "He certainly knows all about it". U albatta buni biladi.

Mustaqil elementlar bitta gapni tashkil qilishi ham mumkin.

Masalan: Yes. No. alas!

Mustaqil elementlarga Gordon¹⁰ qo'yidagilarni kiritadi: modal so'zlar, his-hayajon so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar.

Ingliz tilida so'zlarni mustaqil va yordamchi so'zlarga ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan fe'l so'z turkumini olib qaraydigan bo'lsal, umuman olganda fe'lni mustaqil so'z turkumiga kiradi, lekin ba'zi hollarda fe'l so'z turkumini tashkil qiluvchi modal fe'llarni yordamchi so'z turkumiga kiritish mumkin yoki "to look" fe'lini olib qaraydigan bo'lsak, uni ham mustaqil so'zga, ham yordamchi so'zga kiritish mumkin. Masalan: He looked at me. He looked tired. U menga qaradi. U charchagan ko'rindi.

1 gapda "to look" f'li mustaqil so'z bo'lgan bo'lsa, 2 gapda yordamchi so'z bo'lib kelgan.

1.2. Fe'l so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot.

Hozirgi zamon ingliz tilida fe'l so'z turkumi eng ko'p kategoriyalarga asoslangan so'z turkumidir. U analitik formaga ega bo'lgan birgina so'z turkumi bo'lib, fe'l sistemasida o'ziga

¹⁰ E. M. Gordon, I. P. Krylova "A grammar of Present-Day English" Moscow 1974 p5

xos o'rin tutadigan formalarga, ya'ni infinitiv, gerundiy, sifatdosh kabi shakllarga ega yagona so'z turkumidir.¹¹

Bizga ma'lumki, shaxs yoki narsaning harakati yoki holatini ifodalovchi so'zlar fe'l deyiladi.

Ma'nosiga va gapdagi vazifasiga ko'ra fe'llar qo'yidagi turlarga bo'linadi: **asosiy fe'llar, yordamchi fe'llar, bog'lovchi fe'llar va modal fe'llar.**

Asosiy fe'llar yoki mustaqil fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lib, gapda yakka o'zi sodda kesim bo'lib keladi:

He speaks French.

U fransuzcha gapiradi.

They returned yesterday.

Ular kecha qaytishdi.

Yordamchi fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan, fe'lining murakkab shakllarini yasashda yordam beradi. Ularga qo'yidagi fe'llar kiradi: "to be", "to have", "to do", "shall (will)", "should (would)".

Bog'lovchi fe'llar ot kesim yasashda bog'lovchi bo'lib keladi va eng ko'p ishlatiladigan bog'lovchi fe'l "to be" fe'li hisoblanadi.

Modal fe'llar fe'lining asosiy shakli (infinitiv) bilan birga keladi. Modal fe'llar so'zlovchining ish-harakatga bo'lgan munosabatini, ya'ni asosiy fe'l ifodalagan ish-harakatning sodir bo'lishi imkoniyatini, ehtimolligini, zaruratini, hohishni bildiradi.

Ularga "can", "may", "must", "ought to" va "need" fe'llari kiradi.

Modal fe'llar fe'lining asosiy shakli bilan gapda qo'shma fe'l kesim bo'lib keladi.

Ma'lumki, ingliz tilida aksariyat fe'llar polisemantik (ko'p ma'noli hisoblanadi).

Polisemantik fe'llar ham mustaqil fe'l sifatida, ham yordamchi fe'l sifatida ishlatilishi mumkin.

1. He is married and has three children. (mustaqil fe'l).

2. I had to do this work (modal predikat sifatida).

Ingliz tilidagi barcha fe'llar o'zbek tilidagi kabi ikki guruhga bo'linadi: o'timli (transitive) va o'timsiz (intransitive) fe'llar.

O'timli fe'llar o'zidan keyin to'ldiruvchi talab qiladi:

I'm telling the truth.

Men haqiqatni gapirishga qasam ichaman.

His mother never gave him advice.

Uning onasi unga hech qachon nasihat qilmas edi.

¹¹ Л. С. Бархударов, Д. А. Штелинг «Грамматика английского языка» М. 1973, 131 бет.

Yuqoridagi gaplarda “**to tell**” va “**to give**” fe’llari o’timli fe’l hisoblanadi, ular o’zlaridan keyin “**the truth**”, “**him**” kabi to’ldiruvchilarni talab qiladi.

O’timsiz fe’llardan keyin to’ldiruvchi kelmaydi, shuning uchun ular majhul nisbatda ishlatilmaydi.

We walked across the fields.

Biz dalalar bo’ylab sayr qildik.

Nobody knew where the old man lived.

Hech kim qariyaning qayerda yashashini bilmas edi.

Yuqoridagi gaplarda keltirilgan misollarda “to walk” va “to live” fe’llari o’zidan keyin to’ldiruvchi taqozo etmaydi va shuning uchun o’timsiz fe’l hisoblanadi.

Ko’p ma’noli fe’llarni olib qaraydigan bo’lsak, ular ham o’timli fe’l, ham o’timsiz fe’l bo’lishi mumkin.

He changed his address.

U manzilini o’zgartirdi.

I was glad to see that he had not changed at all.

Men uni umuman o’zgarmaganligini ko’rganimdan xursand edim.

Yuqoridagi birinchi gapda “to change” fe’li o’timli, ikkinchi gapda “to change” fe’li esa o’timsiz fe’l hisoblanadi.

Fe’llar yasashiga ko’ra sodda, yasama va qo’shma fe’llarga bo’linadi.

a) sodda fe’llarga tarkibida qo’shimcha va old qo’shimchasi bo’lmagan fe’llar kiradi: to go, to come, to read, to write, to work va hokazo.

b) yasama fe’llarning qo’shimchasi yoki old qo’shimchasi bo’ladi:

-en “widen” kengaytirmoq, “strengthen”-mustahkamlamoq.

-fy “simplify” soddalashtirmoq, “magnify” kattalashtirmoq.

-ize “to mobilize” jalb qilmoq, “organize” tashkil qilmoq.

-ate “to demonstrate” namoyish qilmoq, “to separate” ajratmoq.

Re-“resell” qayta sotmoq.

Un, “unload” yukki tushurmoq, **untie**-echmoq.

Dis- disappear-g’oyib bo’lmoq, **disarm**-qurolsizlantirmoq.

v) qo’shma fe’llar ikki so’zdan yasaladi:

“to fulfil”-bajarmoq

“to whitewash”-oqlamoq

“to sightsee”-diqqatga sazovor joylarni ko’rmoq

“to foresee” oldindan ko’rmoq

Eng ko’p tarqalgan qo’shma fe’llarga “fe’l+ravish” birikmasi kiradi.

To come in ----- **kirmoq**

To go on ----- **davom etmoq**

To take off ----- **echmoq**

To go away ----- **ketmoq**

To go by ----- **o'tmoq**

Ba'zi hollarda mana shunday poslelogli, ya'ni ravishli fe'llarning ma'nosi ravishsiz fe'llarning ma'nosidan farq qiladi.

Jumladan, **“to take”-olmoq, “to take in”-aldamoq, “to bring”-keltirmoq, “to bring about”-amalga oshirmoq, “to carry”-ko'tarmoq, “to carry out”-amalga oshirmoq.**

Ba'zi so'zlar fe'l va otdan tashkil topgan birikmalardan iborat bo'ladi, bunday birikmalar ham fe'l so'z turkumiga kiradi va ular birgalikda bitta tushunchani hosil qiladi.

“take care” g'amhurlik qilmoq

“take notice” e'tibor bermoq

“make haste” shoshilmoq

“give a glance” nazar tashlamoq va hokazo.

E. M. Gordon fe'llarni semantik jihatdan ikkiga bo'ladi: terminativ fe'llar va dyurativ (davomli) fe'llar.

Terminativ fe'llar ish-harakatning ma'lum chegaragacha davom etishini ko'rsatadi. Bunday fe'llarga **“to open”-ochmoq, “to close”-yopmoq, “to bring”-olib kelmoq, “to recognize”-tanimoq, “to refuse”-rad etmoq, “to break”-sindirmoq** kabi fe'llar kiradi. Masalan, **“to open”** fe'lini oladigan bo'lsak, ish-harakat eshik ochilgunicha davom etadi, keyin davom eta olmaydi.

Davomni (dyurativ) fe'llar hech qanday chegaraga ega emas va ish-harakat noaniq tarzda davom etish mumkin.

Bunday fe'llarga **“to live”-yashamoq, “to speak”-gapirmoq, “to sit”-o'tirmoq, “to play”-o'ynamoq** kabi fe'llar kiradi.

Biroq ingliz tilidagi ko'pogina fe'llar polesemantik bo'lganligi sababli, ularning ba'zi ma'nolari terminativ bo'lsa, boshqa bir ma'nolari davomli (dyurativ) hisoblanadi. Masalan, **“to see”** fe'lini oladigan bo'lsak, **“qaramoq”** ma'nosida kelganida bu fe'l terminativ bo'lsa, **“ko'proq”** ma'nosida kelganida bu fe'l dyurativ hisoblanadi.

Ingliz tilidagi fe'l so'z turkumining morfologik strukturasi tahlil qiladigan bo'lsak, uning gap strukturasi sintaktik funksiyalari muhim o'rin tutadi va bu nisbat kategoriyasi (aniq va majhul) va aspect va zamon kategoriyalari bilan bog'liq.¹²

¹² Б. А. Ильиш, «Строй современного английского языка» 76 бет.

Zamonaviy ingliz tilida aspektlarning qo'llanilishi usuliga ko'ra **"be + first participle"** birikmasining ishlatiladigan va ishlatilmaydigan hollari mavjud:

Writes-is writing

Wrote-was writing

Will write-will be writing

Has written-has been writing

Yuqorida keltirilgan birikmalar **"write"** fe'liga tegishli va ular o'rtasidagi ba'zi grammatik farqlar bor.

Agar biz **"writes"** va **"is writing"**, **"wrote"**, **"was writing"** o'rtasidagi farqlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, biz turli grammatika darsliklaridagi turlicha **"is writing"** ning ta'riflarini uchratamiz, ya'ni **"is writing"** birikmasining asosiy xarakteristikasi shundan iboratki, u ma'lum bir paytda ma'lum bir vaqt chegarasida ish-harakatning davom etayotganligini ko'rsatadi. **"Writes"** esa takrorlanib turadigan, chegaralanmagan ish-harakatni bildiradi va u davomiylikni ko'rsatmaydi, shu ta'riflarga asosan **"The earth turns round the sun"** va **"The sun rises on the East"** gaplarini oladigan bo'lsak, birinchi gapdagi ish-harakat uzluksiz davom etadi, ikkinchi gapdagi ish-harakat har kuni ertalab sodir bo'ladi, ish-harakat kechqurun sodir bo'lmaydi. Bu esa yuqoridagi Grammatik shakllarning ma'nosiga mos kelmaydi va yana boshqa ta'riflarni ham taqazo etadi.

Bizga ma'lumki, hamma fe'llar ham **"be + first participle"** shakli bilan ishlatilmaydi.

Abotrakt munosabatlarni ifodalaydigan fe'llar va his tuyg'ularni ifodalaydigan, jumladan **"to see"**, **"to hear"**, **"to hope"**, **"to love"**, **"to notice"** kabi fe'llar **"be + first participle"** shaklida ishlatilmaydi.

O. Jaspersok¹³ ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, **"is writing"** birikmasi chegaralangan davomiylikni bildirib, ya'ni uning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, bir ish-harakatning boshqa ish-harakatga ramka bo'lib xizmat qilishini bildiradi.

Shunga o'xshash ta'rifni prof. Irteneva¹⁴ ham beradi.

U **"is writing"** birikmasini ifodalagan ish-harakat boshqa ish-harakat bilan bir paytda sodir bo'ladi, deb hisoblaydi.

Aniqrog'i uning bu qarashlari qo'shma gaplarga xos.

Bu esa faqatgina ko'pincha hikoya o'tkan zamonni ko'rsatganda uchraydi.

"But once she was in the car and Andre was bending over her, tucking her rug about her sense of freedom left her? (R. West)".

¹³ O. Jaspersok "The philology of grammar" p277.

¹⁴ Н. Ф. Иртенеева "Грамматика английского языка" М, 1956, стр82.

Bu esa **“is writing”** shakli olimlarning mazkur birikma haqidagi qarashlariga mos kelmaydi.

Qo'yidagi gaplarni olib qaraydigan bo'lsak, “What is he doing? He is reading”.

Bu gapda **“is writing”** shaklidagi birikma bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan yoki “vaqt ramkasi” hisoblanadigan boshqa bir ish-harakat yo'q.

Buni esa prof. Irten'eva¹⁵ “is writing” ish-harakat nutq jarayoni bilan bir paytda sodir bo'lishini sabab qilib ko'rsatadi.

Yana boshqa fikr professor I. Ivanova¹⁶ tomonidan ilgari surilgan. U ingliz tilida aspect mavjudligini ilgari suradi, uni fikricha “is writing” birikmasi aspekt forma bo'lib hisoblanadi, lekin u “writes” shaklini aspektga kiritmaydi, chunki uning fikricha, “writes” shaklining ma'nosi noaniq va uni aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun olim qo'yidagi xulosaga keladi, zamonaviy ingliz tilidagi ba'zi fe'llarning shaxsli formalari “aspektli zamon formalari”, boshqa fe'llarning aspektga ega bo'lganliklari uchun “sof zamon formalari” bor deb hisoblaydi.

J. Bo'ronov¹⁷ Ingliz tili grammatikasida fe'lga qo'yidagi ta'rifni beradi: “Harakat yoki holatni proses sifatida xarakterlab, zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt va boshqa grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'l asosan shaxs faoliyatini ko'rsatib keladi.”

Fe'l haqida to'xtalar ekanmiz, biz fe'llardagi o'timlilik va o'timsizlikka to'xtalib o'tishni joiz deb topamiz. Fe'ldan anglashilgan ma'noning boshqa predmetga qaratilganligi biror ob'ektga ko'chganligini ko'rsatishi va shu harakatning yuzaga kelishi uchun boshqa predmetning ishtirok etishiga qarab fe'llar o'timli va o'timsiz fe'llarga bo'linadi.

Hozirgi ingliz tilida fe'llarning o'timli va o'timsizligini ko'rsatuvchi maxsus grammatik ko'rsatkich yo'q.

O'timli va o'timsizlik bevosita fe'llarning o'zagi orqali ifodalanadi. Ingliz tilidagi fe'llarning ko'pchiligi o'zlarining sintaktik distributsiyalariga qarab ayni bir vaqtda ham o'timli ham o'timsiz fe'l sifatida ishlatilishi mumkin. Ba'zi fe'llar asosan o'timli bo'lib, o'timsizlik ularda yasama – ikkinchi darajali ma'no kasb etadi. Ayrimlari esa umuman o'timsiz bo'lib, o'timlilik ularning ma'lum sintaktik distributsiyada ishlatilishi natijasida yasaladi.

Shu asosda ayrim grammatika kitoblarida fe'llar hatto uch guruhga, yani o'timli, o'timsiz va ikki hil ma'noli fe'llarga bo'linadi¹⁸ deb ko'rsatilgan.

¹⁵ Н. Ф. Иртеньева “Грамматика английского языка” М, 1956, стр83.

¹⁶ И. П. Иванова «Вид и время в современном английском языке» М. 1961, стр57.

¹⁷ J. Bo'ronov, U. Hoshimov “Ingliz tili grammatikasi” T. 1974. p108.

¹⁸ В. Н. Жигадло, И. П. Иванова, Л. А. Иофис «Современный английский язык» М, 1956, 86-87 бет.

Ingliz tilida o'timli va o'timsizlik kategoriyasi fe'llarning leksik ma'nosiga bog'liq bo'lganligi sababli bu kategoriya doimiy Grammatik oppozitsiya tashkil qilmaydi. Ya'ni hamma fe'llarni ham bir vaqtning o'zida sistematik o'timli va o'timsizga ajratib bo'lmaydi.

Masalan: ingliz tilidagi "to grow" fe'lining "o'smoq, o'stirmoq" variantlari bu fe'ning ikki hil formasini emas, balki ikki hil leksik ma'noni, boshqalari esa faqat o'timsiz ma'noni bildiradi.

Masalan: "to go"-bormoq, "to be"-bo'lmoq, "to smile"-jilmaymoq kabi fe'llar faqat o'timsiz bo'lsa, "to see"-ko'rmoq, "to kill"-o'ldirmoq, "to make"-qilmoq, "to catch" tutmoq kabi fe'llar asosan o'timli fe'llar hisoblanadi.

O'zidan keyin Grammatik ob'ekt talab qilib, ish-harakatni Grammatik ob'ekt vazifasida keluvchi so'zga ko'chganligini ko'rsatuvchi fe'llar o'timli yoki tranzitiv fe'llar deyiladi.

Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ayrim fe'llarning ma'lum predloglar bilan qo'shilib, o'timlilik ma'nosini anglatishidir. Bunday fe'llarga ma'lum predloglar bilan doimiy bog'lanib, asosan yo'nalishini ko'rsatuvchi fe'llargina kiradi.¹⁹ Masalan:

To wait for-kutmoq

To look at-qaramoq

To depend on-bog'liq bo'lmoq

To fly over-uchib o'tmoq

To ask for-so'ramoq

O'zlik olmoshlari (oneself, myself, yourself, himself, herself, itself, ourself, yourselves) bilan kelgan fe'llar ham o'timli fe'llar hisoblanadi. Kesim va to'ldiruvchisi bir o'zakdan yasalgan fe'l va otli konstruksiyalarida ham o'timli fe'llarga kiritish mumkin. Bu konstruksiyalardagi to'ldiruvchini qarindagi (cognate) to'ldiruvchi deb ataladi. Masalan:

To live a long life-uzoq umr ko'rmoq.

To die a violent death-birov tomonidan o'ldirilmoq.

To laugh a long laugh-uzoq kulmoq.

To fight the fight of heroes-qahramonlarcha kurashmoq.

Shuningdek, o'timli fe'llarga bir guruh kauzativ fe'llarni ham kiritish mumkin. Bu fe'llar ham tub kauzativ va yasama kauzativ ma'nolarga ega bo'lib, alohida semantik guruhni tashkil qiladi. Hozirgi zamon ingliz tilida tub kauzativ fe'llar juda oz bo'lib, aksincha yasama kauzativ ma'noli fe'llar juda keng tarqalgan.

Tub kauzativ ma'noli o'timli fe'llarda kauzativ ma'no shu fe'llarning o'zaklari orqali maxsus suffiksiz ifoda etiladi. Masalan:

To fell-yiqitmoq, ag'aratmoq.

¹⁹ Л. С. Бархударов, Д. А. Штелинг «Грамматика английского языка» М. 1965, 139-140 бетлар.

To set-joylamoq.

To drench-ho'llamoq.

Boshqa so'z turkumlaridan konversiya, affiksasiya va boshqa yo'llar bilan yasalgan o'timli fe'llar ikkinchi darajali-yasama kauzativ ma'noli fe'llar deyiladi.

Light-yorug'lik

Lighten-yoritmoq

Equal-teng

Equalize-tenglashtirmoq

Formal-rasmiy

Formalize-rasmiylashtirmoq.

Yuqqoridagi yasama o'timli fe'llar ayni bir vaqtning o'zida ham o'timsiz, ham o'timli fe'l vazifasini o'taydi.

Fe'ldan anglashilgan ish-harakatning to'g'ridan-to'g'ri grammatik ob'ektga o'tmasdan faqat grammatik sub'ektning o'zigagina bog'liqlikni ko'rsatuvchi fe'l o'timsiz fe'l deyiladi.

O'timsiz fe'llar anglatgan ma'nosiga ko'ra qo'yidagi guruhlarga bo'linadi;

a) holat yoki turg'unlikni ko'rsatuvchi fe'llar; "to be"-bo'lmoq, "to life"-yahsamoq, "to die"-o'lmoq.

b) harakatni bir erdan ikkinchi erga ko'chishini ko'rsatib keluvchi fe'llar;

"to start"-jo'natmoq, "to go"-bormoq, "to come"-kelmoq, "to arrive"-etib kelmoq, "to march"-yurmoq, "to jump"-sakramoq.

v) tashqi muhitga bo'lgan ta'sirni ifodalovchi fe'llar; "to laugh"-kulmoq, "to smile"-jilmaymoq, "to cry"-yig'lamoq, "to sorrow"-g'am tortmoq.

O'timli va o'timsizligi teng huquqli bo'lgan fe'llar ikki xil ma'noli fe'llar deyiladi.

Masalan: to move-siljimoq; to move-siljitmoq; to stop-to'xtamoq; to widen-kengaymoq; to widen-kengaytirmoq; to finish-tugamoq; to finish-tugatmoq;

Bu fe'llarning o'timli va o'timsiz bo'lib kelishi sintaktik distributsiyaga bog'liqdir.

He **moved**. He **moved** the table.

U siljidi. U stolni siljitdi.

The sun is **shining** well. He **shone** the knife.

Quyosh yaxshi qizitayapti. U pichoqni yaltiratdi.

The story **ended**. He **ended** his story.

Hikoya tugadi. U hikoyasini tugatdi.

Fe'llar o'timli va o'timsiz bo'lishi bilan birga sodda, yasama va qo'shma fe'llarga bo'linadi.

Bir o'zakdan iborat bo'lgan fe'llar sodda fe'llar deyiladi. Masalan, **to come, to see, to work, to hate, to jump, to grav** va boshqalar. Fe'l zamon, shaxs, nisbat kabi grammatik kategoriyalarda kelganda, kategorial grammatik suffikslar uning strukturasini o'zgartirmaydi, yani fe'llar sodda fe'lligicha qoladi.

Work-worked-works-working.

Konversiya yordamida sodda otlardan yasalgan fe'llar ham sodda fe'l hisoblanadi.

To eye-qaramoq; to hand-uzatmoq;

O'zak va affikslarning qo'shilishidan yasalgan fe'llar yasama fe'l deyiladi.

Masalan;

Rewrite-qayta yozmoq, to outcry-qattiq baqirmoq, to misunderstand-notug'ri tushunmoq.

Ikki yoki undan ortiq o'zaklarning o'zaro qo'shilishidan yasalgan fe'llar qo'shma fe'l deyiladi. Masalan: whitewash-oqlamoq, to tongue-til-tili tutilmoq, to nickname-laqab qo'ymoq.

Qo'shma fe'llarga boshqa suffikslar qo'shilishi natijasida yasalgan fe'llar qo'shma yasama fe'llar deyiladi.

Shu bilan birga, fe'llar o'zlarining sintaktik funksiyasiga ko'ra mustaqil va tobe ma'nolarni anglatib, quyidagi uch guruhga bo'linadi;

1) Mustaqil fe'llar-Notional verbs;

2) To'liqsiz fe'llar-Seminal verbs;

3) Ko'makchi fe'llar-Auxiliary verbs ga bo'linadi;

To'liqsiz fe'llar (Seminal verbs) ga o'z navbatida:

a) Bog'lovchi fe'llar

b) Modal fe'llarga bo'linadi.

Mustaqil fe'llarga mustaqil leksik ma'noga ega bo'lib, gapda sodda kesim vazifasida keluvchi fe'llar kiradi.

A film of pacin **passed** over his eyes. (P. Abraxams).

Uni ko'z o'ngidan og'riqli film manzarasi o'tdi.

She **smiled**. U jilmaydi.

Bog'lovchi fe'llar (link verbs).

Bog'lovchi fe'llar anglatgan ma'nolariga ko'ra borliqni, mavjudlikni bildiruvchi fe'llar (**to be**), sezishni bildiruvchi fe'llar (**to feel**), bir holardan ikkinchi holatga o'tishni bildiruvchi fe'llar (**to become, to grow, to get, to turn**), avvalgi holatda turganlikni ko'rsatuvchi fe'llar **to remain, to keep, to stay, to continue** va boshqa fe'l guruhlariga bo'linadi.

Ma'lum distributsiya yordamida bog'lovchi fe'l vazifasini o'tab keluvchi "to stand", "to lie", "to fall", "to go", "to draw", kabi fe'llarni ham shu guruhga kiritish mumkin.

Agar fe'l leksik ma'nosini yuqotib, bog'lovchi fe'l vazifasida kelsa, bu jarayon grammatizatsiya (grammatikallashuv) jarayoni deyiladi. Bog'lovchi fe'llar, asosan, kesimning turli grammatik kategoriyalarini ko'rsatib keladi, chunki predikativ vazifasida keluvchi so'zlar fe'l kategoriyalariga nisbatan o'zgaras formalarda bo'ladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida grammatik funksiya bajarib keluvchi fe'llarga **to be, to have, to do** fe'llaridan tashqari, yana bir guruh fe'llar kiradi. Bu fe'llar yuqoridagi fe'llar kabi keng qo'llanmasa ham yarim grammatikallashgan fe'llar hisoblanadi.

Bu fe'llar qo'yidagilardir: to feel, to grow, to remain, to get, to become, to seem, to look, to go, to fall, to come, to appear, to sit, to lie, to keep, to continue, to stand va hokazo.

Yuqoridagi fe'llar "**to be**" fe'li kabi bog'lovchi fe'l vazifasida kelib, ular yo mustaqil ma'noda kelib, yoki yordamchi ma'noda qo'llanishi mumkin. Bu fe'llar boshqa so'zlar bilan qo'shilib, asosiy fe'llarning ma'nosini yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar va o'zlari shu fe'llarning ta'sirida kuchsizlanadilar, bu fe'llar asosan grammatik ma'nolarni ko'rsatish maqsadida ishlatilganligi uchun ham ular grammatikallashgan fe'llar qatoriga qo'shiladi. Grammatikallashuv to'la yoki qisman sodir bo'ladi. Masalan; "**to feel**" fe'lini olib qaraydigan "**to feel**" fe'li mustaqil fe'l sifatida "sizmoq, anglamoq" kabi ma'nolarni anglatadi.

He suddenly felt my hand. U mening qo'limni darrov sezdi.

"**to feel**" fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelganida leksik ma'nosi umumiydashgani uchun ham o'zbek tiliga tarjima qilinmasligi mumkin:

To feel proud-mag'rurlanmoq;

To feel happy-shodlanmoq;

To feel vacout-xomushlanmoq;

He had felt proud and happy. (J. Joyce).

U o'zini mag'rur va baxtli his qildi.

"**to get**" fe'li o'timli fe'l vositasida kelganida asosan mustaqil fe'l hisoblanib, u o'zbek tilida "topmoq, olmoq, ishlab topmoq, sotib olmoq, ega bo'lmoq, biror narsa qilishga majbur etmoq" kabi ma'nolarni anglatadi.

To get an answer-javob olmoq;

To get a book-kitob olmoq;

To get home-uyga yetmoq;

To get someone ready-tayyorlamoq;

"**To get**" fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelganda, mustaqil ma'nosi kuchsizlanib, predikativ so'zning ma'nosini to'ldiradi va bu o'rinda u o'timsiz fe'l bo'lib keladi.

Yes, we'll go and get married (P. Abraxams).

Ha, biz ketamiz va turmush quramiz.

Please drink your tea-it is getting cold.

Marhamat choyingizni iching. U sovib qoladi.

Come and get warm. (K. Mansfield).

Kirib, isinib oling.

To go, to fall, to come, to appear, to sit, to lie fe'llari xususida to'xtaladigan bo'lsak, bu fe'llar ham mustaqil, ham bog'lovchi fe'l bo'lib kelishi mumkin.

Bu fe'llarning ana shu xususiyatlariga misollar keltiramiz:

To go mustaqil fe'l sifatida:

And now I think I'll go home to my dear families. (R. Kipling).

Endi men uyga, qadrdon oilamga qaytaman.

"To go" bog'lovchisi fe'l sifatida:

Aunt Gosephine went scarlet with pleasure. (Mansfield).

Jozefin xolaning xursandchilikdan yuzlari qizardi.

To fall mustaqil fe'l sifatida:

Then, just before she passed the stralling Frederick, the child fell (A. Benetle).

To fall bog'lovchi fe'l sifatida:

The little girl fell asleep against him on the way back (Galsworthy).

I.3. MODAL FE'LLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Anglatgan ma'nosiga ko'ra majburiylik, mumkinlik, zarurlik, ishonch, hohish yoki ruxsat, taxmin, faraz qilish, qo'lidan kelishlik va shunga o'xshash boshqa ma'nolarni ifodalovchi fe'llar modal fe'llar deyiladi. Modal fe'llar harakatni ko'rsatmasligi tufayli boshqa fe'llardan semantic jihatdan farq qiladi.

Modal fe'llar doimo infinitive shaklidagi asosiy fe'llar bilan birga ishlatilib asosiy fe'llarga modallik ma'nosini qo'shadi.

Gordin²⁰ modal fe'llarga quyidagicha ta'rif beradi: "Modal verbs are defective verbs since they each lack many forms a modal compound predicate. They lack –s in the third person singular in the Present tense and have no verbals, so they have no analytical forms, some of them lack the form of the Past tense".

Modal fe'llarning asosiy grammatik tavsifi haqida J. Bo'ronov²¹ quyidagicha to'xtalib o'tadi.

1) Modal fe'llar faqat infinitive formasidagi fe'llar bilan ishlatiladi.

Modal fe'li bilan ishlatiladigan infinitive har xil bo'lishi mumkin:

a) perfekt bo'lmagan infinitiv bilan:

He can speak a little French.

U bir oz fransuz tilida gapira oladi.

All children must go to school at the age of 7.

Barcha bolalar 7 yoshidan maktabga borishlari shart.

It can be true.

Bu haqiqat bo'lishi mumkin.

b) perfektli infinitiv bilan:

You could have seen the house from, there if it had not been so dark.

Agar bunchalik qorong'u bo'lmaganida edi, siz bu erdan uyni ko'ra olgan bo'lar edingiz.

I oughtn't to have told you.

²⁰ E. M. Gordon, I. P. Krylova "A grammar of present-day English" M, 1974, p79.

²¹ J. Bo'ronov, O'. Hoshimov, X. Ismatullayev "Ingliz tili grammatikasi" T, 1974, 128 bet.

Men sizga buni aytmashim kerak edi.

You should have done it before.

Siz buni avval qilishingiz lozim edi.

He must have been ill.

U kasal bo'lgan bo'lsa kerak.

c) davomli aspektidagi infinitiv bilan:

She oughtn't to be thinking about spending money. (Th. Dreiser).

U sarflayotgan pullari haqida o'ylamasa kerak.

She couldn't be telling lies.

U yolg'on gapira olmaydi.

The book is not on the shelf. Jane must be reading it.

Kitob tokchada emas. Jane uni o'qiyotgan bo'lsa kerak.

d) davomli aspektidagi perfekt infinitiv:

Could he have been at home all this time?

U butun shu vaqt mobaynida uyda bo'lganmikan?

She couldn't have been waiting for us so long.

U bizni buncha uzoq vaqt mobaynida kuta olmagan bo'lardi.

It must have been raining all the night.

Tun bo'yi yomg'ir yoqqan bo'lsa kerak.

e) passiv (majhul) nisbatdagi infinitiv bilan:

All this must be changed. (K. Aldington).

Buni hammasini o'zgartirish kerak.

The work must be done at once.

Bu ishni zudlik bilan bajarish lozim.

f) passiv nisbatdagi perfekt infinitiv bilan:

It might have been considered beautiful at one time.

Bir vaqtning o'zida uni chiroyli deb hisoblash mumkin edi.

The book could have been read in a short time.

Kitobni qisqa vaqt ichida o'qib chiqilsa bo'lar edi.

2) Modal fe'llardan keyin kelgan asosiy fe'l "to" yuklamasiz ishlatiladi, ya'ni ular hamisha predikativ formada bo'ladi. Ammo modal fe'llarning ekvivalentlari bundan mustasinodir.

I cannot see what you mean.

Siz nima dimoqchiligingizni tushuna olmayapman.

You have to change your mind.

Fikringizni o'zgartirishingizga to'g'ri keladi.

3) Ikkinchi shaxs birlikda “-s” qo'shimchasi ishlatilmaydi.

You must go out in the fresh air.

Siz toza havoga chiqishingiz shart.

You can get a nice room here and some clothes and then you can do something. (Th. Dreiser).

Siz bu erdan yaxshi uy, keyim-kechak va biror ish bilan shug'ullanishingiz mumkin.

4) Modal fe'llarning ayrimlari ikkita zamon formasida: can-could, may-might, will-would, dare-dared, shall-should, ayrimlari esa faqat bitta o'zgarmas formada keladi: must, ought, need.

Clyde could scarcely prevent her voice from trembling (Th. Dreiser).

Klaid zo'rg'a ovozdagi titroqni bosa oldi.

I can imagine how angry he is.

Uni qanchalik darg'azabligini tasavvur qilayapman.

L. S. Barxudarov, D. A. Shtelinglar²² o'ziga xos semantikaga va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan bir guruh fe'llarni modal fe'llarga kiritadi. Modal fe'llarning asosiy guruhini can (could), may (might), must, shall (should), ought, will (would) kabi modal fe'llar tashkil etadi.

L. Barxudarov o'zining “Грамматика английского языка” kitobida modal fe'llarning ish-harakatni emas, balki so'zlovchining ish-harakatga bo'lgan hoxishini, imkoniyatini, zaruriyatini bildiradi.

Shuningdek, modal fe'llar turli xil emotsiyalarni, ya'ni ajablanishni, shubhani va shu kabilarni bildiradi.

Gap strukturasidagi o'rniga ko'ra modal fe'llar yordamchi so'zlar hisoblanadi.

Modal fe'llar ish-harakatni emas, balki modallik munosabatini anglatgani uchun ham ular gapning mustaqil bo'lagi sifatida ishlatilmaydi.

Modal fe'llar har doim infinitive bilan birikib, murakkab modal kesim bo'lib keladi.

1. You **must not allow** your father to take such a step. You **must prevent** it (Ch. Dickens).

Siz otangizning bunday yo'l tutishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak.

Siz buni taqiqlashingiz kerak.

2. She cannot deceive me. Her name cannot be Doolittle. (B. Shaw)

U meni alday olmaydi. Uning ishi Dylittle bo'lishi mumkin emas.

²² Л. С. Бархударов, Д. А. Штелинг «Грамматика английского языка» М. 1973, стр 309.

Must, should, ought kabi modal fe'llar o'zgarma formaga ega bo'lsa, ikki xil formaga ega, aniq mayl hozirgi zamonda **can, may, will** bo'lsa, aniq mayl o'tgan zamonda **could, might, would**.

Shart-istak maylda: could, might, would.

M. A. Belyayeva²³ modal fe'llarga qo'yidagicha ta'rif beradi:

“Модальные глаголы-это такие глаголы, которые выражают не действие или состояние, а отношение лица, обозначенного местоимением или существительным, несущем в предложении функцию подлижающего, к действию или состоянию, выраженному инфинитивом. Модальный глагол в сочетании с инфинитивом образует в предложении составное глагольное сказуемое. Модальные глаголы выражают значение возможности, необходимости, вероятности, желательности и т. п.”.

Shuningdek, Belyayeva o'zining ingliz tili grammatikasi kitobida **can, may, must, ought, need** kabi fe'llarni modal fe'llarga kiritadi.

Bizga ma'lumki modal fe'llardan keyin infinitiv **“to”** yuklamasini olmaydi. **“Ought”** modal fe'llidan keyin esa **“to”** yuklamasi albatta keladi.

Modal fe'llar boshqa fe'llardan o'zining to'rt formasiga ega emasligidan ham farqlanadi.

“Can” va “may” modal fe'llari ikki zamon formasiga, ya'ni hozirgi va o'tgan zamon formasiga ega bo'lsa, **“must”, “ought”, “need”** kabi modal fe'llar faqat hozirgi zamon formasiga ega.

Present Indefinite: can, may, must, ought;

Past Indefinite: could, might;

Modal fe'llarning shaxssiz shakllarga infinitiv, gerundiy va sifat-dosh shakllariga ega emas.

Modal fe'llarning so'roq va inkor shakllari **“to do”** yordamchi fe'llarisiz yasaladi. So'roq formalarda modal fe'llar egadan oldinga o'tadi.

Masalan: Can you do it?

May you do it?

Must you do it?

Need he do it?

Ought she do it?

²³ М. А. Беляева «Грамматика английского языка» М. 1984, стр 139.

Modal fe'lli inkor gaplarda **“not”** inkor yuklamasi modal fe'llardan keyin keladi. **“Can”** modal fe'lli inkor gaplarda **“not”** inkor yuklamasi **“can”** modal fe'li bilan birga yoziladi: **“cannot”** kabi.

He cannot do it.

U buni qila olmaydi.

You may not smoke here.

Bu yerda chikilmaydi.

Modal fe'llar quyidagi inkor yuklamali qisqartmalarga ega:

Can't mayn't

Couldn't mightn't

Needn't mustn't

Modal fe'llar haqida

Kaushanskaya²⁴ quyidagicha to'xtalib o'tadi: “Modal verbs are used to show the speaker's attitude toward the action or state indicated by the infinitive, I, e, they show that the action indicated by the infinitive is considered as possible, impossible, probable, improbable, obligatory, necessary, advisable, doubtful or uncertain, etc. The modal verbs are: can (could), may (might), must, should, ought, shall, will, would, need, dare. The modal expressions to be+infinitive and to have+infinitive also belong here.

Modal verbs are called defective because all of them (except “dare” and need) lack verbals and analytical forms” (i.e. compound tenses, analytical forms of the subjunctive Mood, the Passive Voice).

J. Bo'ronov²⁵ o'zining “Ingliz tili grammatikasi” darslik kitobida modal fe'llarning qo'yidagi xususiyatlariga ham alohida to'xtalib o'tadi:

Modal fe'llardan sifatdosh formasini yasab bo'lmaydi.

Suffiks yoki prefikslar yordamida modal fe'llardan yangi fe'llar yasalmaydi, chunki modal fe'llarning o'zlari so'z yasash usuli yordamida boshqa so'zlardan yasalgan emas.

Modal fe'llar to'yuklamasini olmasligining sababi, preterit-prezent fe'llarning infinitiv formasidan emas, balki hozirgi zamon formasidan yasaladi.

Masalan; Qadimgi ingliz tilida **“can, may, shall”** modal fe'llarining infinitiv formasi **“cannat”, “magan”, “sculan”, hozirgi zamon formasi esa “can”, “mag”, “sceal”** bo'lgan.

Qadimgi ingliz tilida bu fe'llarning birinchi va ikkinchi shaxs birlik formalari aynan bit xil bo'lganligi uchun ham hamma shaxslarda bir forma ishlatilib, faqat ikkinchi shaxs birlik

²⁴ V. L. Kaushanskaya “A grammar of the English language” L, 1967. p118.

²⁵ J. Bo'ronov, O'. Hoshimov “Ingliz tili grammatikasi” T. 1974, 138-139 bet.

formasigina ulardan farq qilgan. Masalan; I va III shaxs birlikda **can** II shaxs birlikda **“canst”** XVI asrdan boshlab ikkinchi shaxs birlik formasi standart adabiy ingliz tilida uchala shaxsda ham bir hil forma qo'llaniladi. Qadimgi ingliz tilida I va II shaxs birlik formasi standart adabiy ingliz tilida (standart English) kamdan-kam ishlatila borib, oxiri umuman ishlatilmay qolganligi sababli hozirgi ingliz tilida I va II shaxs birlik formalarining bir xil bo'lishiga preterit-prezent fe'llarning hozirgi zamon formalari kuchli fe'llarning (strong verbs) o'tgan zamon indikativ formalariga o'xshashligi sabab bo'lgan.

“Can”, “may” modal fe'llari anglatgan ma'nolarni **“to have to”, “to have”, “got to”, “to be obliged to”, “to be to”** yordamida ham berish mumkin.

Yuqorida keltirilgan infinitivli formalar modal fe'llarning o'ziga xos sinonimlari bo'lib ularni modal fe'llarning ekvivalentlari deb yuritiladi. **“Can”** modal fe'li anglatgan ma'noni ayrim hollarda **“to be able (to)”** yordamida ham berish mumkin, **“May”** modal fe'lining esa **“to be allowed to”** kabi ekvivalenti bor.

“Must” modal fe'lining esa **“to have to”** (have got to) yoki **“to be to”** kabi ekvivalentlari bor. Bu ekvivalent fe'llar grammatik kategoriyalarning deyarli hammasida qo'llanilsa-da, leksik va stilistik jihatdan ko'p hollarda chegaralangan bo'ladi.

K. N. Kachalova²⁶ modal fe'llarga **“can” (could), may (might), “must”, “ought”, “need”** kabi modal fe'llarni kiritadi.

1.4. **“Must”** modal fe'li haqida.

Mazkur bitiruv-malakaviy ish **“must”** modal fe'lining ekvivalentlari bo'lgan **“to have to”** va **“to be to”** haqida ekan **“must”** modal fe'lga batafsil to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

²⁶ К. Н. Качалова, Е. Е. Израйлович «Грамматика английского языка» М, 1996, стр 220.

“**Must**” modal fe’li hozirgi zamon ingliz tilida faqat hozirgi zamon formasida ishlatilib, boshqa zamon formalarida uning ekvivalentlari ishlatiladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida “**must**” modal fe’lining quyidagi ekvivalentlari mavjud bo’lib, ular quyidagilar:

“to have to”, “to be to”, “to be obliged to”, “to have got to”.

“**Must**” modal fe’li o’zining ekvivalentlaridan semantic va stilistik jihatdan farq qilishi mumkin. Hozirgi zamon ingliz tilida “**Must**” modal fe’li quyidagi ma’nolarni anglatadi.

1) zaruriyat va majburiylikni ifodalab o’zbek tilida “kerak”, “shart”, “lozim” deb tarjima qilinadi.

I must do it now.

Men buni hozir bajarishim lozim.

He must write. He must earn money (London).

U yozishi kerak. U pul topishi shart.

The work must be done at once.

Ish darhol bajarilishi shart.

2) “Must” modal fe’li burch va ma’suliyatni ham ifodalaydi.

1) I must hurry. I must warn him of danger. (Belyaeva 244).

Men shoshilishim lozim. Men uni havfdan ogoh etishim shart.

2) We must help them.

Biz ularga yordam berishimiz lozim.

3) “Must” modal fe’li buyruq, maslahat, tavsiya qilish, qattiq iltimosni ham bildiradi.

You must go out in the fresh air all you can. (A. E. Coppard).

Siz iloji boricha ko’proq toza havoda bo’lishingiz lozim.

You must see her, miss Sarrie. (P. Abrahams).

Sora xonim siz uni ko’rishingiz kerak.

You must consult a doctor. (Kachalova).

Siz doktorga ko’rinishingiz kerak. (maslahatni bildiradi).

You must rest first, she said. (P. Abrahams).

Siz avval dam olishingiz kerak, dedi u. (maslahat).

You must post the letter at once. (buyruq).

Siz hatni darhol jo’natishingiz kerak.

You must leave the room at once. (buyruq).

Siz darhol xonadan chiqib ketishingiz kerak.

4) “Must” modal fe’li inkor va so’roq gaplarda kelsa, taqiqni bildiradi:

You must not speak to a prisoner in a foreign language, madam. (Voynich).

Xonim siz mahbus bilan chet tilida gaplashmasligingiz kerak.

He must not know he has to fly it. (J. Aldrige).

U uni uchirishi kerakligini bilmasligi kerak.

Then cat pretended to be sorry and said “Must I never come into the cave? Must I never sit by the warm fire? Must I never drink the warm white milk? (Kipling)”.

Keyin mushuk achingay dedi: “Men hech qachon g’orga kirmasligim kerakmi? Men hech qachon issiq kaminning oldida o’tirmasligim kerakmi? Men hech qachon iliq sut ichmasligim kerakmi?”.

Vositars mustn’t feed the animals. (Bonk).

Tashrifchilar hayvonlarga ovqat berishmasin.

5) ehtimollik, chama qilish va ishonchli:

But she must be lonely. (P. Abrahams).

U yolg’iz bo’lsa kerak.

You must beel lonely too.... (Ibid)

Siz hm o’zingizni yolg’iz his qilayotgan bo’lsangiz kerak.

He must be about ninety, but he’s some strong guy (B. G. Friedman).

U chamasi to’qson yoshlarda bo’lsa kerak, lekin kuchli yigit.

Qat’iy ishonch ma’nosida **“Must”** modal fe’li faqat darak gaplarda infinitivning har qanday formasi bilan ishlatiladi. Agar ish-harakat hozirgi zamonni ifodalasa **Indefinite, Infinitive** ishlatiladi. Agar ish-harakat o’tgan zamonni ifodalasa, **Perfect Infinitive** ishlatiladi. Mary, of course 1she must be in New York by now. (M. Wilson).

Albatta, Meri hozir Nyu-Yorkda bo’lsa kerak.

“He must be quite middle-aged by now” went on aunt Juley dreamily.

He must be fifty. (J. Galsworthy).

U hozir o’rta yoshlar atrofida bo’lsa kerak, gapida davom etdi, Juli xola.

You must think. I have a very short memory, said his father sarcastically (J. Lindsay).

Meni xotiram chatoq deb o’ylashingiz mumkin, dedi uning otasi zaharhandalik bilan.

Surely, they don’t want me for myself. Then they must want me for something else. (London).

Shubhasiz, meni o’zim ularga kerak emasman, men ularga nima boshqa narsa uchun kerakman.

Oh, Mae, think how he must be subbering! Poor man! (webster).

O, Mey; u qanchalik azob chekayotgan ekan. Bechora!

What a comfort you must have been to your blessed mother. (Ch. Deckens).

Sizning onangizning yonida bo’lishingiz qanchalik onangiz uchun madad bo’lgan bo’lsa kerak.

Is she still waiting? She must have been waiting for an hour.

U haliyam kutayaptimi? U bir soatdan beri kutayotgan bo'lsa kerak.

He must be ill. He looks so pale.

U kasal bo'lsa kerak. Uning rangi juda (siniq) oqargan.

It must be late as the streets deserted.

Ko'chalarning kimsasizligiga qaraganda, juda kech bo'lgan bo'lsa kerak.

Quyidagi gaplarda **“Must”** modal fe'li taklif ma'nosini bildiradi.

You must come and see me some time.

Biror kun minikiga keeling.

You must come and have Linner wich me.

Siz tushlik qilgani biznikiga keeling.

You must come to our party.

Biznikiga ziyofatga keling.

You must come and stay with as for the week-end.

Siz biznikiga kelib, biz bilan dam olish kunlarini biz bilan o'tkazing.

Yuqoridagi gaplarda **“Must”** modal fe'li taklif ma'nosini bildirib, ma'nosi kuchsizlanganligini ko'rish mumkin.

“Must” modal fe'lini **“May”** modal fe'li bilan ikkita ma'noda qiyoslash mumkin.

1) Har ikki modal fe'llari ham taxminni bildiradi. “May” modal fe'li noaniqroq taxminni bildirsa, “Must” modal fe'li haqiqatga yaqin taxminni bildiradi.

Masalan;

For all I know, he may be an actor. His face seems so famillar.

Bilishimcha, u aktyor bo'lsa kerak. Uni yuzi menga juda tanish.

He must be an actor. His voice carries so well.

U aktyor bo'lsa kerak. Uning ovozi juda kuchli.

I saw him an hour ago. He may still be in his office now.

Men uni bir soat oldin ko'ruvdim. U haliyam offisida bo'lishi mumkin.

He always comes at 10 sharp. So he must be in his office now.

U har doim roppa-rosa soat 10 da keladi. Shuning uchun u offisida bo'lsa kerak.

2) Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, “Must” modal fe'li inkor gaplarda taqiqni bildiradi, shuningdek, “may” modal fe'li ham. Biroq “may” modal fe'li kamdan-kam hollarda bu ma'noda keladi.

You may not smoke here.

Bu erda chekishingiz mumkin emas.

“**May**” modal fe’li ishtirok etgan, ruxsat ma’nosini bildiruvchi so’roq gaplarga, ta’qiqlashni bildiruvchi javoblarda ko’pincha “**must not**” yoki “**cannot**” modal fe’llari uchraydi.

May I smoke here?

Bu erda cheksam bo’ladimi?

No, you mustn’t can’t.

Yo’q, mumkin emas.

May I leave the room.

No, you mustn’t.

Shuningdek, “**Must**” modal fe’lini zamonlar moslashuvi qoidasiga asosan ko’rib o’tadigan bo’lsak, agar bosh gapning kesimi o’tgan zamonda bo’lsa, “**Must**” modal fe’li ishtirok etgan ergash gap kesim, “maslahat”, “buyruq” va qat’iy tahminni ifodalasa o’zlashtirma gapda “**Must**” modal fe’li o’zgarmay qoladi.

She said to him. You must be more careful. (maslahat).

She told him he must be more careful.

She said, you must be very fond of music if you go to concerts so often (tahmin).

U dedi, “Siz konsertlarga buncha tez-tez borganligingizdan, musiqani yaxshi ko’radiganga o’xshaysiz.”

She said he must be very fond of music if he went concerts so often.

U uni konsertga tez-tez borishidan uning musiqa shaydosi ekanligini aytdi.

She was informed that she must never again walk much. (Hardy).

U bundan keyin bunchalik ko’p yurmasligi kerakligini bayon qildi.

He said he was afraid you must think him ungrateful. (Marryat).

U sizni uni noshkur deb o’ylashingiz mumkinligidan qo’rqishini aytdi.

Mr. Brownlow smiled and said that.

Mr. grimwig was an old friend of his and he must not mind his being a little rough in his manners. (Dickens).

Janob Braunlou jilmaydi va janob Grimvig uning qadrdon do’ssti ekanligini va uning bir oz qo’pol muomala qilishiga e’tiroz bildirmasligi kerakligini ta’kidlab o’tdi.

Agar “**Must**” modal fe’li ko’chirma gapda shart-sharoitdan kelib chiqqan zaruriyatni bildirsa, u holda o’zlashtirma gapda “**to have to**” ning “**had to**” shakli bilan o’rin almashadi:

She said, “I must get up early every morning”.

U dedi, “Men har kuni erta turishim kerak”.

She said she had to get up early every morning.

U har kuni erta turishi kerakligini aytdi.

“Must” modal fe’li ko’chirma gapda oldindan rejalashtirilgan ish-harakatni yoki buyruqni ifodalasa, u holda o’zlashtirma gapda **“Must”** modal fe’lining **“to be to”** ekvivalenti bilan o’rin almashadi.

She said, “I must ring him up at two o’clock. She said she was to ring him up at two o’clock.”

U dedi: “Men unga soat 2⁰⁰ da qung’iroq qilishim kerak.

U unga soat 2⁰⁰ da unga qung’iroq qilishi kerakligini aytdi.”

I BOB BO’YICHA XULOSA.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi “to have to”, “to be to” haqida bo’lib, mazkur izlanishning birinchi bobida biz so’z turkumlari, fe’l haqida va must modal fe’li haqida va ular borasida tilshunos olimlarning qarashlariga ham alohida to’xtalib o’tdik.

Bizga ma’lumki so’z turkumlari haqidagi muammo tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng eng ko’p munozarali muammolardan biridir.

So’z turkumlari uch turdagi prensipga asosan tasnif qilinadi:

1. Ma’no;
2. Shakl;

3. Funksiya;

Shuning uchun ma'no, shakl, funksiya kabi prinsiplarga asosan so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi.

Fe'l so'z turkumini olib qaraydigan bo'lsak, ma'no bo'yicha ish-harakatni bildirsa, shakl bo'yicha uning zamon, mayl, nisbat kabi kategoriyalari, funksiya bo'yicha uning gapdagi sintaktik vazifalari kiradi.

Fe'l so'z turkumi o'zida yuqorida aytib o'tgan uch prinsipni o'zida mujassamlashtirgani uchun ham mustyaqil so'z turkumiga kiradi.

Yordamchi so'z turkumlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular so'zlarni gapda bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi va gap strukturasida mustaqil funksiyani bajarmaydi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining I bobida biz ataoqli tilshunos olimlarning fikrlariga ham tayandik. Akademik Shaxmatov (А. А. Шахматов «Синтаксис русского языка» М. 1941) so'z turkumlari sintaksisda o'rganilishi kerak deb hisoblaydi. Atoqli tilshunos В. Ильиш (В. Ильиш «The structure of Modern English» Л. 1971) so'z turkumlari nazariyasini morfologiyaning bir qismi deb qaraydi.

Demak yuqorida aytib o'tkanimiz uch prinsipga asosan so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlariga:

- 1) Ot (The Noun);
- 2) Sifat (The Adjective);
- 3) Olmosh (The Pronoun);
- 4) Son (The Numeral);
- 5) Fe'l (The Verb);
- 6) Ravish (The Adverb);
- 7) Modal so'zlar (Modal Words);

2. Yordamchi so'z turkumlariga:

- 1) Predlog (Preposition);
- 2) Artikl (Article);
- 3) Bog'lovchi (Conjunction);
- 4) Yuklama (Particle);

1.2. Paragrafda fe'l so'z turkumiga to'xtalar ekanmiz fe'l so'z turkumi ma'nosiga va gapdagi vazifasiga ko'ra: asosiy fe'llar, yordamchi fe'llar, bog'lovchi fe'llarga bo'linadi.

Asosiy fe'llar (mustaqil fe'llar) mustaqil ma'noga ega bo'lib gapda yakka o'zi sodda kesim bo'lib keladi.

Yordamchi fe'llar (Auxiliary verbs) mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan, fe'lining murakkab shakllarini yasashda yordam beradi, ya'ni "to be", "to have", "to do", "shall (will)" kabilar kiradi.

Bog'lovchi fe'llar ot kesim yasashda bog'lovchi bo'lib keladi va eng ko'p ishlatiladigan bog'lovchi fe'l "to be" fe'lidir.

Modal fe'llar fe'lining asosiy shakli bilan birga keladi. Modal fe'llar so'zlovchining ish-harakatga bo'lgan munosabatini bildiradi.

Mazkur Malakaviy bitiruv ishining ob'yekti bo'lgan "to be to", "to have to" "Must" modal fe'lining ekvivalentlari hisoblanadi. Shu bois mazkur bitiruv malakaviy ishida biz "Must" modal fe'lga ham to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

"Must" modal "to be to" va "to have to" oborotlaridan stilistik jihatdan farq qiladi. "Must" modal fe'lining kamchiliklaridan biri "Must" modal fe'li o'tgan yoki kelasi zamonda ishlatilmaydi. O'tgan va kelasi zamonlarda "Must" modal fe'li o'rniga "to be to" va "to have to" ishlatiladi.

II BOB

"To be to" va "to have to" oborotlarning lingvistik tahlili.

2.1. Hozirgi zamon ingliz tilida "to have to" ning ma'nolari.

"To have" fe'li modal ma'noda ishlatilganda asosiy fe'ldan anglashilgan ish-harakatning yuzaga chiqishi kerakligini, lozimligini, zarurligini, gapning grammatik subyekti uchun shu ishni bajarish majburiy ekanligini bildiradi.

I have to behave with them around. (PAP 89).

Men ular oldida o'zimni yaxshi tutishim kerak.

Why did she have to ask these questions? (PAP 112).

Nima uchun u bu savollarni so'rashga majbur bo'ldi.

You have to be black to understand. (PAP 101).

Siz buni tushunishingiz uchun o'shalarday bo'lishingiz kerak.

"Must" modal fe'li "have to" va "have got to" oborotining ma'nosi deyarli bir xil bo'lib, ularning har uchasi ham subyektning biror ish-harakatni bajarishi zarurligini ifoda etadi.

Lekin shu bilan birga, ularning ma'nolarining o'rtasida farq bor.

"Must" modal fe'lining ma'nosi "to have to" oborotiga qaraganda kuchliroq bo'lib "must" modal fe'li ko'pincha talablarda, qoidalarga va qonun uchun ishlatiladi. Biz ko'pincha "must" modal fe'lini yozma yo'riqnomalarda ham uchratishimiz mumkin.

You must take an entrance exams. (school requirements).

Siz kirish imtihonlarini topshirishingiz kerak. (maktab talablari).

Drivers must signal before they turn right or left. (Driver's manual).

Haydovchilar o'ngga yoki chapga burishlaridan oldin signal berishlari kerak.

“To have to” va “to have got to” oboroti ko'pincha biror-bir shart-sharoitdan kelib chiqqan zaruriyatni anglatadi. Masalan:

1. I had to wait for ages at the dentist yesterday. It was really busy...

Odam ko'p bo'lganidan, men tish-doktori huzuriga kirish uchun ko'p kutib qolishimga to'g'ri keladi.

2. You know the football players have to train before the big game. (GKL 41).

Bilasizki futbol o'ynovchilar katta o'yindan oldin tayyorlanishlariga to'g'ri keladi.

“To have to” oboroti o'zbek tiliga ko'pincha to'g'ri keladi deb tarjima qilinadi.

1. I have to write my letters in pencil. (EFG 65).

Men xatlarimni qalam bilan yozishimga to'g'ri keladi.

2. I'm sorry to have to tell you, he said. (EFG 109).

Men sizga buni aytishga majbur bo'lganimdan afsusdaman.

“To have to” (have got to) oborotini “must” modal fe'li bilan taqqoslaydigan bo'lsak, “must” modal fe'li “to have to” oborotidan farqli o'laroq zamonlarda qo'llanilish imkoniyati chegaralangan, ya'ni o'tgan zamonda, yoki kelasi zamonda ishlatilmaydi.

Kelasi yoki o'tgan zamonda “must” modal fe'lining ma'nosini o'zida mujassamlashtirgan “to have to” oboroti ishlatiladi. Shuning uchun “to have to” (have got to) ning zamonlarda ishlatilish imkoniyati “must” modal fe'lga nisbatan kengroq.

Quyidagi misollarda biz “to have to” (have got to) oborotining zamonlarda ishlatilishini ko'rib o'tamiz:

“To have to” (have got to) ning hozirgi zamonda ishlatilishi.

1) Tyler and I **have to** keep ourselves busy doing something when the Force isn't around giving orders. (GDF 34).

Fors buyruq bermagan paytida, Tailer va men o'zimizni biror yumush bilan band qilishimizga to'g'ri keladi.

2) Tyler has to get back to do his homework (GDF 6).

Tailer uyga vazifasini qilish uchun qaytishga majbur.

3) I know it's hard, but we all have to give up things. (EFG 109).

Men buni qiyin ekanligini bilaman, lekin bizni hammamiz narsalardan voz kechishimga to'g'ri keladi.

4) No I must teach the boys a lesson even if I have to go without bread myself. (EFG 22).

Yo'q hattoki nonsiz ketishimga to'g'ri kelsada, men balalarga saboq berishim shart.

5) We only have to be patient; it'll work out fine. (WWD. 297).

Biz faqat sabrli bo'lishga majburmiz, bu yaxshi ish beradi.

6) He is an invalid and has to have a nurse. (Gor. 93).

U nogiron va hamshira yollashga majbur.

“To have to” (have got to) oborotining o'tgan zamon kontekstlarida ishlatilishiga misollar:

1) She knew what she had to do. (Gor. 93).

U nima qilish kerakligini bilar edi.

2) You had to go on the next morning... (EFg21).

Kelasi kuni ertalab siz ketishingizga to'g'ri kelgan edi.

3) I thought I was going to stay in Paris for the rest of my life, but M'sieur cochet had to sell the merry-go-round. (EFG5).

Men hayotimning qolgan qismini Parijda o'tkazaman deb o'ylagan edim, biroq Misiyur Kochet charxpalakni sotishiga to'g'ri keldi.

4) She began to cry so hard that ha **had to** forget his own grief and comfort her. (EFG 51).

Uni o'z qayg'usini unitishga majbur bo'lib, uni yupatishi uchun judayam qattiq baqirib yig'lashni boshladi.

5) If I **had to** leave you, Rita, I would feel the same way. (EFG31).

Men sizni tashlab ketishimga to'g'ri kelganida ham, Rita, xuddi shunday yo'l tutgan bo'lar edim.

6) He **had to learn** to say hello in three languages. (GDF 12).

U uchta tilda salom berishni o'rganishiga to'g'ri keldi.

“to have to” oborotining so'roq va inkor shakllari “to do” yordamchi fe'li yordamida yasaladi.

Quyidagi gaplarda “to have to” oborotining so'roq va inkor shakllarini ko'rib o'tamiz:

1. Why **do I have to** do everything? (Gor 93).

Nima uchun men hamma narsani qilishim kerak?

2. **Did he have to** tell them about it?

U bu haqda ularga aytishga majbur bo'ldimi?

3. **Did they have to** leave the town? (HEF.130).

Ular shaharni tark etishga majbur bo'ldilarmi?

4. “Mybe you won't have to worry about earthquakes anymore, Bess.” (WWD 339).

Ehtimol sizga endi boshqa zilzilalardan havotirlanishingizga to'g'ri kelmaydi.

5. I **did not have to** walk, I took a tram.

Men tramvayga chiqdim, piyoda yurishimga to'g'ri kelmadi.

6. **Did you have to** walk all the way home. (PAP 91).

Siz uyingizga piyoda borishingizga to'g'ri keldimi?

Quyidagi misollarda “to have to” oborotining kelasi zamonda qo'llanilishini ko'rib o'tamiz.

1. But I **will have to** sell tickets, and who will let them know? (EFg 18).

Biroq meni billet (chipta) sotishimga **to'g'ri keladi** va ularga kim xabar beradi.

2. We'll **have to call** and **ask** them to leave. (WWD 254).

Biz ularni chaqirib, kelishlarini so'rashimizga **to'g'ri keladi**.

3. "We **will have to go** on, added Rita, until we meet a child".

Bolani uchratmagunimizcha, yo'lda davom etishimizga **to'g'ri keladi**, qo'shimcha qildi Rita.

4. I **shall have to take** the pupils into the hills, as usual, and **see** them settled there. (Voynich 128).

Men o'quvchilarni tepalikka olib borishimga va odatdagiday ularni u yerda joylashishini kuzatishimga to'g'ri keladi.

Ingliz tilining so'zlashuvida, ayniqsa ingliz tilining Amerika variantida ko'pincha "to have to" oborotning o'rniga "to have to" oboroti ishlatiladi.

"Have got to" oboroti faqat hozirgi zamonda (The Present Indefinite Tense) ishlatiladi.

1. We've **got to keep** awake, **we've got to** watch things and be ready. (Lindsay).

Bizga sergak **bo'lishimizga to'g'ri keladi**, biz hodisalarni kuzatib, tayyor turishimiz **darkor**.

2. He has got to go right now.

Uni hozirni o'zida ketishiga to'g'ri keladi.

Biz yuqorida "to have got to" oborotini faqat hozirgi noaniq zamonda ishlatilishini aytib o'tgan edik, lekin shunday bo'lsada, ba'zan "to have got to" oboroti o'tgan zamonda ham ishlatilib turadi. Masalan:

1) He had got to sell his car. (Gor 94).

U mashinasini sotishiga to'g'ri keldi.

"Have got to" oborotining so'roq va inkor shakllari "to have to" oborotidan farqli o'laroq "to have to" yordamchi fe'li yordamida yasaladi. Masalan:

1) Have you got to do all this work yourself?

Bu ishning hammasini o'zingiz bajarishingizga to'g'ri keldimi?

2) No, I have not got to work so much.

Yo'q, meni bunchalik ko'p ishlashimga to'g'ri kelmaydi.

3) Has he got to cancel the meeting?

U majlisni qoldirishga majbur bo'ladimi?

"To have to" oboroti odatda biror bir shart-sharoitdan kelib chiqadigan majburiyatni bildiradi, shu bois o'zbek tiliga "majbur bo'lmoq" yoki "to'g'ri keladi" deb tarjima qilinadi. Masalan:

1) If you want to achieve, you have to make sacrifices. (TMI 14).

Agar siz biror narsaga erishmoqchi bo'lsangiz, sizga fidokorlik qilishingizga to'g'ri keladi.

2) I love my sleep. I **had to get** up at eight o'clock this morning instead of 8.45, and it was awful. (TML 14).

Men uxlashni yaxshi ko'raman. Men bugun ertalab soat 8.45 da turish o'rniga soat 8⁰⁰ daturishga majbur bo'ldim va bu men uchun juda daxshat edi.

3)he had to drive a specific route...

.....u maxsus yo'nalishda mashinani haydashiga to'g'ri kelar edi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimiz "to have to" ning zaruriyati so'zlovchining o'ziga bog'liq bo'lgan majburiyatdan, yoki bo'lmasa tashqi ta'sirlar tufayli kelib chiqadigan zaruriyat tufayli yuzaga kelishi mumkin. Tashqi zaruriyat tufayli kelib chiqadigan zaruriyatga biror bir joyga tegishli tartib qoidalarni, odatlarni va urf-odatlarni kiritish mumkin.

1. Soldiers have to wear uniforms in the arms.

Soldatlar armiyada forma keyishga majburdirlar.

2. When I was at school we had to wear a uniform.

Maktabda o'qigan paytimda bizga forma kiyishimizga to'g'ri kelgan edi.

"To have to" yuqorida keltirilgan har ikkala gapimizda biror bir joyga taaluqli bo'lgan qonun-qoidalar tufayli yuzaga kelgan ish-harakat uchun ishlatilgan.

1. "Like why some people **have to** wear glasses and other people don't have to" Tyler said, pushing his glasses up on his nose. (GDF 66).

Bu xuddi nima uchun ba'zi kishilar ko'zoynak taqishga majbur va boshqa kishilar esa majbur bo'lmaganliklari kabi dedi Taler, ko'zoynagini burnining ustiga itarganicha.

2. He had to stop to rest... (GDF 13).

U dam olishga majbur bo'lib to'xtadi.

"To have to" oboroti yuqoridagi har ikkala gapda so'zlovchining o'ziga bog'liq bo'lgan zaruriyat tufayli qo'llanilgan.

Hozirgi zamon ingliz tilida "to have to" oboroti ko'pincha biror bir shart sharoitdan kelib chiqadigan zaruriyatda va majburiyatda ishlatiladi.

1. It rained so hard while I was out yesterday that I **had to buy** an umbrella....

Kecha ko'chada bo'lganligimda shunchalik qattiq yomg'ir yoqqanligidan, zontik sotib olishimga majbur bo'ldim.

2. They've **got to go** to London to catch a direct Edinburgh train....

Ular to'g'ridan-to'g'ri Edinburg poezdiga chiqishlari uchun Londonga borishlariga to'g'ri keldi.

3. The children were excited by the merry-go-round, and one of the little girls begged Carlos to stop, but he said he was sorry, he had to go on. (EFG 16).

Bolalar charxpalak tufayli hayajonda edilar va kichkina qizchalardan biri Karlosdan charxpalakni to'xtatishni so'radi, lekin u afsusdaligini va charxpalakni aylantirishga majbur ekanligini aytdi.

4. You **will never have to** leave me the way you left the other children, she said, because Papa owns the merry-go-round. (EFG 31).

Siz boshqa bolalarni tashlab ketganingiz kabi, meni tashlab keta olmaysiz, chunki dadam charxpalakning xo'jayini, dedi y.

Avval ta'kidlaganimizdek "to have to" oboroti, ko'pincha "must" modal fe'li ma'nosi bilan bir xil, faqat "inkor" bo'lishsiz gaplarda ularning ma'nosi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Chunki "to have to" oboroti bo'lishsiz gaplarda biror bir ish harakatni qilishga zaruriyat yo'qligini bildirsa, "must" modal fe'li taqiqni ifodalaydi. Masalan:

You don't have to go there. (Gor 94).

Sizni u yerga borishingizga hojat yo'q.

You mustn't go there. (Gor 94).

Sizni u yerga borishingiz ta'qiqlanadi.

2.2. "To be to" ning gapdagi ma'nolari.

"To be to" ni tilshunos olim E. M. Gordon "Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasi" da²⁷ modal fe'l deb ataydi.

Tilshunos olim V. L. Kaushanskaya²⁸ esa "to be to" ni modal birikma deb ataydi. Ba'zan "to be to" oborotining ma'nosi "Must", "shall", "ought" kabi modal fe'llar ma'nosiga yaqin bo'ladi.

²⁷ E. M. Gordon, I. P. Krylova "A grammar of Present-Day English" M. 1974, p94.

“To be to” ikkita zamonda, ya’ni hozirgi (Present) va o’tgan (Past tense) zamonda, qo’llaniladi.

“To be to” modal fe’l sifatida hozirgi zamon ingliz tilida quyidagi ma’nolarda qo’llaniladi:

a) avvaldan rejalashtirilgan ish-harakatda yoki rejalashtirilgan ish-harakat tufayli kelib chiqadigan zaruriyatda:

1.they **were to see** each other, while the gypsy mother greeted Joe’s wife. (EFG 37).

Lo’lining onasi Joyning rafiqasi bilan uchrashayotgan paytda ular bir-birlari bilan uchrashishlari kerak edilar.

2. They **were to go** to spain for the honeymoon. (Kaush 127).

Ular asal oyiga Ispaniyaga borishlari kerak edi.

3. You **are to go** straight to your room. You **are to say** nothing. (WWD 112).

Siz to’g’ri xonangizga borishingiz kerak. Siz hech narsa demasligingiz kerak.

4. I’m sorry, Major, we had an agreement-I **was to do** the questing here. (Kaush 127).

Kechirasiz, Mayor, bizni kelishuvimiz bor, bu yerda savol-javobni men olib borishim kerak.

5. “Have you seen him?” he asked. “No, **he was to have met** me here the next morning.” (Voynich).

“Siz uni ko’rdingizmi?” so’radi u, “yo’q, u meni keyingi kuni ertalab kutib olishi kerak edi.”.

“To be to”, yuqoridagi ma’noda kelganda hozirgi va o’tgan zamonda bo’lishi va so’roq gaplarda ishlatiladi. “To be to” o’tgan zamonda, perfekt infinitivda ishlatilsa, amalga oshmagan rejalashtirilgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan:

1) I promised to go to a club with her last. Tuesday, and I really forgot all about it.

We **were to have played** a duet together. (Kaush 95).

Men o’tgan seshanba kuni unga u bilan kulubga borishga va’da bergan edim va bu haqda butunlay unitib qo’ydim. Biz birga duet kuylashimiz kerak edi.

“To be to” hozirgi zamon ingliz tilida buyruq va ko’rsatmalarda, ko’pincha rasmiy tilda (o’zlashtirma gaplarda) qo’llaniladi:

1) I just mention it because you said I was to give you all the details I could.

Men shunchaki eslatib o’taman, chunki siz men qo’limdan kelganicha sizga hammasini batafsil aytib berishim kerak degan edingiz.

2) All Junior officers are to report to the colonel at once. (HEK 101).

Hamma kichik serjantlar darhol polkovnikka hisob berishlari kerak.

“To be to” oboroti yuqoridagi ma’nolarda kelganida bo’lishli va inkor gaplarda ishlatilishi mumkin.

c) “to be to” oboroti ehtimollikni ifodalash uchun ham qo’llaniladi va bu ma’noda ko’pincha “can” yoki “may” modal fe’llariga ekvivalent bo’lib keladi deyish mumkin va hozirgi (Present

²⁸ В. Л. Каушанская «Грамматика английского языка» Л. 1967. стр127ю

Tense) va o'tgan zamondagi (Past Tense) darak, so'roq va bo'lishli gaplarda majhul nisbatdagi infinitiv bilan qo'llaniladi.

Masalan:

1. Her father was often to be seen in the bar of the Hotel Metropole. (WWD 47).

Uning otasini tez-tez Metropol mehmonxonasining barida ko'rish mumkin edi.

2. Where is he to be found? (PAP 49).

Uni qaerdan topish mumkin?

3. Nothing can be done under the circumstances.

Mazkur sharoitda hech narsa qilib bo'lmaydi.

“To be to” oboroti quyidagi birikmalarda ham kelishi mumkin:

What am i to do?

Men nima qilishim kerak?

What is to become of me?

Menga nima bo'ladi?

Where am I to go?

Qayerga ham borar edim?

“To be to” oborotining “were+to” shakli shart-istak maylida barcha shaxslarda ishlatilishi mumkin.

1) If he were to come again I should not receive him. (Gor 95).

Agar u yana kelsa, men uni qabul qilmayman.

2) Mother would reseat it betterly if. I were to ask for breakfast at this hour. (Gor 124).

Agar men onamdan mana shu soatda nonushta qilish uchun so'raganimda edi, u qat'iy qarshilik qilgan bo'lar edi.

3.what he would do if he were to meet them. (Gor 124).

Agar u ularni uchratganida edi u nima qilgan bo'lar edi.

Was (were)+infinitive o'tgan zamon nuqtai nazardan kelasi zamon uchun rejalashtirilgan ish-harakatlar uchun qo'llaniladi:

We were to meet him at the station. (PAP 84) bilan.

Biz u vokzalda uchrashishimiz kerak edi.

Yuqoridagi gapda ish-harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganligi aniq emas.

Agar so'zlovchi ish-harakatning amalga oshmaganligini aniqlashtirmoqchi bo'lsa, gapda “to be to” ning perfektlilik shaklini qo'llaydi.

We were to have met him at the station.

Biz u bilan vokzalda uchrashishimiz kerak edi. (Lekin uchrasha olmadik).

Shunga qaramay yuqoridagi gapda oddiy infinitiv ham ishlatilishi mumkin.

2.3. “To have to” ning sintaktik-semantik tahlili.

Bizga ma'lumki, tilshunos olim Anatoliy Mitrofanovich Muxin nazariyasiga ko'ra, tilda uchta kategoriyal sintaktik-semantik belgilar bor, ya'ni ular substansial, kvalifikativ va prosessual (ish-harakat) sintaktik-semantik belgilar.

Odatda biror elementda u yoki bu sintaktik-semantik belgini aniqlash uchun lingvistik eksperiment metodlaridan foydalaniladi. Lingvistik eksperiment metodlari o'tkazilishida, gapning grammatik belgilanishiga rioya etishdan, uning stilistik daxlsizligi mazmunining saqlanishidan iboratdir, lingvistik eksperiment metodlariga quyidagi metodlar kiradi.

1. Tushurib qoldirish transformatsiyasi.
2. Almashtirish transformatsiyasi.
3. O'rganiladigan gapni so'roq gapda aylantirish transformatsiyasi.
4. Verballashtirish, ya'ni gap strukturasidagi o'rganiladigan elementni fe'lga aylantirish transformatsiyasi.

Mazkur paragrafda bizni qiziqtiradigan “to have to” oborotining protsessual aktiv sintaktik-semantik belgiga ega ekanligini isbotlash uchun verballashtirish transformatsion metodidan foydalanamiz. Masalan:

1. You'll have to forgive him (GDF 68).

Siz uni unitishga majbursiz.

2. I have to writemy letters in pencil. (EFG65).

Men xatlarimni qalam bilan yozishimga to'g'ri keladi.

3. Because Tyler has to get back to do his homework. (GDF67).

Chunki Tailer uyga vazifasini tayorlashi uchun qaytib ketishiga to'g'ri keladi.

4. He had to learn to say hello in three languages....(Gdf 145).

Uni uchta tilda salom berishni o'rganishiga to'g'ri keldi.


Endi yuqoridagi “to have to” oborotli gaplardagi aktiv (ish-harakat) sintaktik-semantik belgini aniqlash uchun verballashtirish (fe'lga aylantirish) transformatsion metodidan foydalanamiz:

1 2 (2) 2 3

- 1) You'll **have to** forgive him → You'll forgive him.

→ You'....have to him.


→ You'llforgive him.



2) I have to write my letters in pencil. → I write my letters in pencil.

1 2 2 3 4 (5) 5


I have to write my letters in pencil.



3) Because Tyler has to get back to do his homework. → Because Tyler gets back to do his homework.

1 2 2 2 3 4 5


Tyler has to get back to do his homework.



4) He had to learn to say hello in three languages. → He learned to say hello in three languages.

1 2 2 3 3 (5) 4 5


He had to learn to say hello in three languages.



NP₁. NP₂. D₁. D₂. D₃.


1 2 2 2 3

We are not to stay long.



1 2 2 2 3

He is to go to concert today.



Demak yuqorida olib borilgan eksperiment metodlari “to have to” oborotining artive prosessual sintaktik-semantik belgiga ega ekanligini isbotladi.

Yuqorida biz “to have to” oborotining aktiv sintaktik-semantik belgisini ko’rib o’tdik, “to have to” oboroti aktiv sintaktik-semantik belgi bilan bir qatorda o’zida stativ (holat) sintaktik-semantik belgini ham ifoda etadi va bu sintaktik-semantik belgini quyidagi gaplar misolida ko’rishimiz mumkin:

1) We **don’t have to be together** (MAB 158).

Biz birga bo’lmasligimiz

2) Uarus **has to be alone**, Tyler said (GDF 10).

Uarus yolg’iz qolishi kerak dedi Tailer.

3) We only have **to be patient**. (WWD 68).

Biz faqat sabrli.

2.4. “To be to” oborotining sintaktik-semantik tahlili.

Biz avvalgi paragrafda “to have to” oborotining sintaktik-semantikaga ega ekanligini lingvistik eksperiment metodi orqali isbotlagan edik. Mazkur paragrafda ham bizga “to be to” oborotining aktiv prossessual sintaktik-semantikasini aniqlash uchun “to be to” ishtirok etgan gaplarni verballashtirish (fe’lga aylantirish) transformatsion metodiga murojat qilamiz.

1) It’ll be all right but we are not to say long. (WWD 40).

Juda yaxshi bo’ladi biroq bizga uzoq qolishimizga to’g’ri kelmaydi.

2) He **is to go to** concert today. (WWD 86).

U bugun konsertga borishi kerak.

3) They **were to meet**(PAP84).

Ular uchrashishlari kerak edi.

4) We are to come early today.

Bugun biz erta kelishimiz kerak.

Yuqorida keltirilgan gaplarda “to have to” ning aktiv prossessual sintaktyik-semantikasini topish uchun verballashtirish eksperiment metodiga murojat qilamiz:

1. It’ll be all right but we **are not to** stay long. →It’ll be all right but we are not staying long.
2. He **is to** go to concert today.→He goes to concert today.
3. They **were to** meet.→They met.

4. We **are to** come early today. → We come early today.

Demak yuqoridagi gaplar “to be to” oborotining aktiv prossessual sintaktik-semantikaga ega ekanligini isbotladi.

Biz yuqorida ko’rib o’tilgan misollarimizdan ko’rinib turibdiki, “to be to” oborotining aktiv sintaktik-semantik belgisi “to be to” V₁ (V₁-fe’lning birinchi shakli) birikmasida keladi.

II BOB bo’yicha xulosa.

Mazkur malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobida biz “to be to” ning gapdagi ma’nolariga va “to have to” ning gapdagi ma’nolariga shu bilan birga ularning sintaktik-semantik metodlariga to’xtalib o’tdik.

Biz “to have to” ning gapdagi ma’nolarini o’rganar ekanmiz quyidagi xulosalarga keldik.

1. “To have to” oboroti “Must” modal fe’lidan farq qilgan holda barcha zamonlarda qo’llanilishi mumkin.

2. “To have to” ning inkor va so’roq shakllari “to do” yordamchi fe’li yordamida yasaladi.

3. “To have to” oboroti ifodalagan majburiyat va zaruriyat shart sharoit tufayli yuzaga keladi.

4. “To have to” ning inkor gapda ishlatilish mazmuni “Must” modal fe’lidan farq qiladi.

Ya’ni “Must” modal fe’li inkor gaplarda taqiqni bildirs, “To have to” ish-harakatni bajarishga zaruriyat, hojat yo’qligini bildiradi.

5. So’zlovchi uslubida “To have to” o’rniga ko’pincha “To have got to” (has got to) ishlatiladi.

6. “To have to” “Must” modal fe’lidan shart-sharoit tufayli kelib chiqadigan zaruriyat tufayli ishlatilishi bilan farq qiladi. “Must” modal fe’li so’zlovchining o’zidan kelib chiqadigan zaruriyat va majburiyat uchun ishlatiladi.

“To be to” oborotiga to’xtaladigan bo’lsak. “to be to” hozirgi zamon ingliz tilida hozirgi va o’tgan zamonlarda ishlatiladi, kelasi zamonda esa ishlatilmaydi.

“To be to” gaplarda quyidagi ma’nolarda ishlatiladi.

1) avvaldan rejalashtirilgan reja yoki mana shu reja tufayli kelib chiqadigan majburiyat uchun;

2. buyruq va instruksiyalarda ishlatiladi;

3. ehtimollikda;

4. “to be to” ning o’tgan zamondagi shakllari o’tgan zamon nuqtai-nazaridan kelasi zamondagi ish-harakat uchun ishlatiladi.

“Was (were)+to” o’tgan zamondagi gaplarda ishlatilganda ish-harakatning amalga oshgan yoki oshmaganligi ma’lum bo’lmaydi.

Agar soʻzlovchi ish-harakatning amalga oshgan yoki oshmaganligini maʼlum qilishni istasa “was (were)+to” ning oʻrniga perfekt infinitiv ishlatiladi.

II bobda biz “To have to” va “to be to” larning sintaktik-semantikalariga ham murojat qildik. “To be to” va “To have to” gap strukturasida oʻzida aktiv (ish-harakat) sintaksemasini mujassamlashtirishini verballashtirish, yaʼni bizni qiziqtirayotgan elementni feʼlga aylantirish eksperiment metodi orqali isbotladik.

Umumiy xulosa.

Mazkur bitiruv malakaviy ishning I bobida biz “To be to” va “To have to” oborotlari “Must” modal feʼlining ekvevalentlari boʻlganligi bois, soʻz turkumlari, feʼl soʻz turkumi va “Must” modal feʼliga toʻxtalib oʻtishni joiz deb topdik.

Soʻz turkumlarining uch turdagi prinsip asosida tasnif qilishiga alohida toʻxtalib oʻtdik. Shu bilan birga soʻz turkumlarini tasnif qilishda B. Ilyish, E. M. Gordon, Kaushanskaya, Shaxmatov, Smirnidskiy, Barxudarov, Kachalova kabi atoqli tilshunos olimlarning fikrlariga tayanib oʻtdik. Soʻz turkumlari gapdagi:

1. ma'nosiga ko'ra;
2. gapdagi vazifasiga ko'ra;
3. so'z yasash formasiga ko'ra;
4. so'z o'zgarish formasiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi.

Mustaqil so'z turkumlariga: ot (noun), sifat (adjective), olmosh (pronoun), son (numeral), fe'l (verb), ravish (adverb), modal so'zlar (modal words), undalma (interjection) kabilar kirsar, yordamchi so'z turkumlariga: predlog (preposition), bog'lovchi (conjunction), artikl (article) va yuklama (partikle) kiradi.

Keyingi paragrafda biz fe'l so'z turkumiga to'xtalib o'tdik.

Fe'l so'z turkumi ma'nosi va gapdagi vazifasiga ko'ra asosiy yoki mustaqil fe'llar (notional verbs), yordamchi fe'llar (auxiliary verbs), bog'lovchi fe'llar (linking verbs) va modal fe'llarga bo'linadi.

Bi zmazkur paragrafda asosiy fe'llarning mustaqil ma'noga ega bo'lib, gapda kesim vazifasida kelishiga to'xtalib o'tdik.

Yordamchi fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan, fe'lining murakkab shakllarini yasashda yordam beradi va ularga "to be", "to have", "to do", "shall(will)", "should(would)".

Bog'lovchi fe'llar ot kesim yasashda bog'lovchi bo'lib keladi.

Modal fe'llar fe'lining asosiy shakli (infinitiv) bilan birikib keladi.

Modal fe'llarning boshqa fe'llardan farqi, ular ish-harakatni emas, balki so'zlovchining ish-harakatda bo'lgan munosabatini bildiradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi "Must" modal fe'lining ekvivalentlari bo'lgan "To have to" va "To be to" haqida ekan, shu bois biz "Must" modal fe'li haqida ham to'xtalib o'tishimiz joiz deb topdik. "Must" modal fe'lga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi zamon ingliz tilida "Must" modal fe'li faqat hozirgi zamonda ishlatilganligi bois o'tgan va kelasi zamonda "Must" modal fe'lining ekvivalentlari "to be to", "to have to" va "to be obliged to" ishlatiladi. Shuningdek, "Must" modal fe'lining buyruq, maslahat, burch, qat'iy iltimos ma'nosida kelishini, inkor shaklida taqiqni bildirishga alohida to'xtalib o'tdik.

Shu bilan birga "Must" modal fe'li ehtimollik, chama qilish va ishonchni ham o'zida mujassamlashtiradi.

II bobda biz "To have to" va "to be to" oborotlarining gapdagi ma'nolariga to'xtalib o'tdik. Yuqorida aytib o'tkanimizdek "To have to" va "to be to" oborotlari "Must" modal fe'lining ekvivalentlari hisoblanadi.

"Must" modal fe'li "To have to" va "to be to" lar, asosan bir umumiy ma'noni ya'ni majburiyat va zaruriyat kabi ma'nolarni ifodalaydi. Hozirgi zamon ingliz tilida garchi ular o'zlariga xos bo'lgan ma'no ko'rinishlarini ifodalashsa-da, ularning ishlatilishi bir-biriga juda yaqindir.

“Must” modal fe’lini olib qarasak, “Must” modal fe’li so’zlovchining o’zidan kelib chiqadigan majburiyat va zaruriyatni ifodalaydi.

I must do it (I want to do it).

Men buni bajarishim kerak. (Men buni bajarishni hohlayman).

He must do it himself. (I shan’t help him).

U buni o’zi bajarishi lozim. (Men unga yordam bermayman).

“To have to” esa shart sharoitdan kelib chiqadigan majburiyat va zaruriyatni ifodalaydi.

What a pity you have to go now.

(It’s time for you to catch your train.)

Afsus sizga ketishingizga to’g’ri keladi.

He has to do it himself. (He has no one to help him).

U buni o’zi qilishiga to’g’ri keladi.

(Unga yordam beradigan hech kim yo’q).

“To be to” esa kelishuv natijasida kelib chiqadigan zaruriyat va majburiylikni ifodalaydi.

We **are to** meet for them at the entrance. (We have arranged to meet there, so we must wait for them at the appointed place.)

Biz ularni kirishda kutib olishimiz kerak. (Biz o’sha yerda kutishga kelishganmiz, shuning uchun ularni belgilangan joyda kutishimiz kerak).

O’tgan zamonda “to be to”, “to have to” va must modal fe’li o’rtasidagi farq yaqqol ko’rinadi.

“Must” modal fe’lining o’tgan zamon shakli yo’q bo’lib, faqat o’zlashtirma gapning o’tgan zamon kontekstlarida ishlatiladi.

He said he must do it himself.

Uni aytishi bo’yicha u buni o’zi bajarishi kerak edi.

“To have to” o’tgan zamonda shart-sharoitdan kelib chiqadigan majburiyat va zaruriyatda ishlatiladi.

He had to sell his car. (It was necessary for him to do it because he needed money.)

U mashinasini sotishiga to’g’ri keldi. (U pulga muhtojligi bois, shunday qilishi kerak edi.)

Was (were)+infinitiv, ya’ni “to be to” ning o’tgan zamon shakli o’tgan zamon nuqtai nazaridan kelasi zamonni ifodalash uchun ishlatiladi, lekin ish-harakatning o’tgan zamonda amalga oshgan yoki oshmaganligi aniq emas.

We were to meet him at the station.

(It is not clear from the sentence if the action will take place or not).

Biz vokzalda uchrashishimiz kerak edi. (Ish-harakatning amalga oshgan yoki oshmaganligi aniq emas).

Agar so'zlovchi ish-harakatning amalga oshmaganligini konkretlashtirishni hohlasa, "to be to" dan keyin perfect infinitiv ishlatiladi.

We were to have met him at the station.

Biz vokzalda uchrashishimiz kerak edi. (Lekin amalga oshmadi.)

Shuningdek biz II bobda "To have to" ning barcha zamonlarda ishlatilishini ko'rib o'tdik.

"To have to" ning inkor va so'roq shakllari "to do" yordamchi fe'li bilan yasaladi.

"To have to" shart-sharoit tufayli kelib chiqadigan majburiylik va zaruriyatni ifoda etadi.

"To have to" ning inkor shakli ish-harakatni bajarishga zaruriyat yo'qligini ifoda etadi.

II bobda biz "to be to" oborotiga va uning gapdagi ma'nolariga ham alohida to'xtalib o'tdik.

Bizga ma'lumki "to be to" faqat hozirgi zamon va o'tgan zamonlarda ishlatiladi.

Modal fe'l sifatida "to be to" avvaldan rejalashtirilgan ish-harakat va zaruriyatni ifoda etadi.

Mazkur ma'noda "to be to" hozirgi va o'tgan zamonlarning darak va so'roq gaplarda qo'llaniladi.

Shuningdek "to be to" buyruq va instruksiyalarda, ko'pincha rasmiy tarzda uchraydi.

"To be to" ehtimol ma'nosida uchrashiga ham alohida to'xtalib o'tdik.

Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar.

1. Бархударов Л. С. «Структура простого предложения современного английского языка» М. 1966.
2. Бархударов Л. С, Штелинг Д. А. «Грамматика английского языка» М. 1973.
3. Беляева М. А. «Грамматика английского языка» М. 1984.
4. Бўронов Ж. "Инглиз тили грамматикаси" Т. 1974.
5. Бандарко А. В. «Грамматическая категория и контекст» Наука, Ленинград. 1971.
6. Гордон Э. М. «Грамматика английского языка» М. 1974.
7. Jespersen O. "The philology of grammar" L. 1954. p277.
8. Иртенёва Н. Ф. «Грамматика английского языка» М. 1956.
9. Ilyish B. "The structure of Modern English" L. 1971.
10. В. Л. Каушанская «Грамматика английского языка» Л. 1967.
11. К. Н. Качалова, Е. Е. Израилович «Практическая грамматическа английского языка» М. 1996.
12. Мухин А. М. «Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка» Л. 1980.
13. Пешковский А. М. «Русский синтаксис в научном освещении» М. 1938.
14. Смирnidский А. С. «Синтаксис английского языка» Изд-до лит. На иностр. языках. 1957.
15. Шахматов А. А. «Синтаксис русского языка» М. 1941.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar.

1. ASS-Australian short stories. M. Progress Publishers, 1975.
2. ACC-Cronin A. S. "The Citadel" M. Higher School Publishing House, 1966.
3. CPD-Parker G "The Darkness of the Morning" M: Progress Publishers, 1978.
4. EFG-Elizabeth Foster "Gigi in Amerika" New York, The Yunion literary Gred.
5. FCS-Cooper F. G. "The spy" M: Progress Publishers, 1975.
6. HEM-Hemingway E "To have or have not" M: 1979.
7. JSG-Swift J. Gulliver's Traveles-M, 1979.
8. TGL-Galsworthy J. "To let"-M; 1989.
9. GDF-Gobls Davis. "Fishman and Charley" New York, 1986.
10. PAP- P. Abrahams "The Path of Thunder" M; 1971.
11. SMM-Maugham S. W. "The Moon and Sixpence" M; 1975.
12. WWD-William Worton "Dad" New York, 1987.

Foydalanilgan lug'atlar.

1. BARC-Большой англо-русский словарь: М: Русский язык, 1977.
2. BOC-The Oxford English Dictionary in 12 volumes. Oxford, 1977.
3. WWD-Webster's new dictionary of synonyms. USA 1996.
4. WDS-Webster's Dictiory of Synonyms. -Merriam, 1976.

Ilova 1.

—————→ Eksperiment o'tkazish mumkin bo'lgan holat.

—————→ Eksperiment o'tkazish mumkin bo'lmagan holat.